




“HUMO” MILLIY TO’LOV TIZIMI QOIDALARI

(versiya 1.0.2, 01.07.2026y.)

Toshkent 2026

Mundarija:

1. Umumiy qoidalar	3
1.1. Kirish	3
1.2. Atamalar va ta'riflar	3
1.3. Qoidalarining majburiyligi va ularni qo'llash	7
1.4. Operatorning boshqa to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorligi	7
2. Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, logotiplar va ularni foydalanish qoidalari	8
3. Operator va Ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik	9
3.1. Operatorning huquq va majburiyatlari	9
3.2. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari	11
4. Ishtirokchilar ro'yxatini yuritish tartibi	13
5. Tizimga qo'shilish va undan chiqish tartib-taomillari	13
5.1. Tizimga qo'shilish tartibi	13
5.2. Tizimda ishtirok etishni to'xtatib turish va tugatish tartibi	13
6. Emissiya faoliyati	16
6.1. Emitentning huquq va majburiyatlari	16
6.2. BINlarni taqdim etish tartibi	17
6.3. Emitentning mijoz bilan tuzadigan shartnomasiga qo'yiladigan talablar	17
7. Ekvayring faoliyati	19
7.1. Ekvayerning huquq va majburiyatlari	19
7.2. Ekvayerning SXX bilan o'zaro hamkorligi	21
7.3. Karta rekvizitlaridan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish uchun SXX Internet-saytini rasmiylashtirish va funksionaliga qo'yiladigan talablar (internet-ekvayring)	22
7.4. Kartalarga xizmat ko'rsatish punktlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar	22
7.5. SXXni tekshirish qoidalari	22
7.6. MCC-kodlarni biriktirish qoidalari	23
7.7. Musodara qilingan kartalar bilan ishlash tartibi	24
8. Firibgarlik, noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati bilan bog'liq Operatsiyalar, shuningdek xavflilik darajasi yuqori bo'lgan boshqa Operatsiyalarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar	24
8.1. Antifrod chora-tadbirlari	24
8.2. Noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati bilan bog'liq Operatsiyalar, shuningdek xavflilik darajasi yuqori bo'lgan boshqa Operatsiyalarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar	26
9. Tizimda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi	28
10. Axborot xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar	29
10.1. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Tizim Ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar	30
10.2. Tizimda Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarning buzilishi bilan bog'liq hodisalarni aniqlash	32
10.3. Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish	32
11. Javobgarlik	32
12. Nizolarni hal etish	37
13. Maxfiylik	37

1. Umumiy qoidalar

Mazkur “HUMO” milliy to'lov tizimi qoidalar (keyingi o'rinlarda – Qoidalar deb yuritiladi) “HUMO” milliy to'lov tizimini (keyingi o'rinlarda – Tizim deb yuritiladi) tashkil etish va uning faoliyat yuritish tartibini belgilaydi, Tizimda ishtirok etish shartlarini hamda Ishtirokchilar o'rtasida axborot-texnologik va moliyaviy o'zaro hamkorlikni amalga oshirishni tartibga soladi, shuningdek Ishtirokchilarning huquqlari, majburiyatlari va funksiyalarini belgilaydi.

1.1. Kirish

“HUMO” milliy to'lov tizimi — Ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, Operator tomonidan belgilangan tartib-taomillar, infratuzilma va mazkur Qoidalar asosida Operator, to'lov tizimi Ishtirokchilari va/yoki To'lov tashkilotlarining o'zaro hamkorligi orqali to'lovlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.

Tizimni tashkil etishdan maqsad — mazkur Qoidalar muvofiq to'lov tizimi Ishtirokchilari va/yoki To'lov tashkilotlari tomonidan Mijozlarga taqdim etiladigan to'lov kartalaridan foydalangan holda xizmatlar ko'rsatishning uzluksizligi, samaradorligi va qulayligini ta'minlashdan iborat.

Qoidalar “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Qoidalar Operator va Ishtirokchi o'rtasida tuziladigan Tizimda ishtirok etish (protsessing markazida xizmat ko'rsatish) to'g'risidagi shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

Qoidalar, Tariflar va Tizimning normativ hujjatlari ommaviy foydalanish uchun ochiq hisoblanadi hamda Operatorning www.humocard.uz manzilidagi rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Operator Qoidalar, Tariflar va (yoki) Tizimning normativ hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida ularni tasdiqlagan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida Operatorning www.humocard.uz manzilidagi rasmiy veb-saytida tegishli xabarnomani joylashtirish orqali Ishtirokchilarni xabardor qiladi.

Qoidalar, Tariflar va (yoki) Tizimning normativ hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Operator va Ishtirokchilar tomonidan Operatorning www.humocard.uz manzilidagi rasmiy veb-saytida e'lon qilinganidan keyin 15 (o'n besh) kalendar kun o'tgach qo'llaniladi.

Operator Ishtirokchilarni xabardor qilishning boshqa mavjud vositalaridan foydalanish huquqini o'zida saqlab qoladi.

1.2. Atamalar va ta'riflar:

Avtorizatsiya

Operator va/yoki Emitent tomonidan Operatsiyani amalga oshirish uchun beriladigan ruxsat bo'lib, u Ekvaer tomonidan Emitentdan Avtorizatsiya berilgan summa miqdorida Operatsiya bo'yicha mablag'larni olish uchun asos hisoblanadi.

Avtorizatsiya so'rovi

Ekvaerning Avtorizatsiyadan o'tish maqsadida yuboradigan so'rovi.

Bankomat

Kartalardan foydalangan holda naqd pul mablag'larini berish yoki qabul qilish Operatsiyalarini hamda mazkur Qoidalar muvofiq boshqa Operatsiyalarni amalga oshirish, Mijoz hisobvarag'idan pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarni Emitentga uzatish va tegishli Operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

BIR (Bank identifikatsiya raqami)

Operator tomonidan Emitentga taqdim etiladigan, Emitentning karta mahsulotlari turlarini aniqlovchi 6 xonali raqamli identifikator.

BIRlar jadvali

Operatsiyani amalga oshirishda Avtorizatsiya so'rovlarini yo'naltirish tartibini belgilovchi Operator tomonidan shakllantiriladigan BIRlar ro'yxati.

CVV

Karta haqiqiylikini tekshirish uchun foydalaniladigan uch xonali kod. Mazkur kod Karta egasining imzo qo'yish chizig'iga joylashtirilishi mumkin. Karta taqdim etilmagan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalarni bajarishda himoya elementi sifatida foydalaniladi.

Dastlabki avtorizatsiya

real vaqt rejimida amalga oshiriladigan, Karta egasining hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lari mavjudligini tekshirish yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov kafolati sifatida Karta egasining hisobvarag'idagi zarur pul mablag'lari summasini rezervlash uchun mo'ljallangan Avtorizatsiya. Dastlabki avtorizatsiya pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirish uchun asos hisoblanmaydi.

Disput

Tizimda ETVdan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiya yuzasidan yuzaga kelgan, Ishtirokchilardan biri tomonidan Operatsiyaning qonuniyligi, to'g'riligi, hajmi, summasi, muddatlari yoki boshqa shartlari e'tiroz ostiga qo'yilishi hamda uni Operator tomonidan belgilangan tartibda ko'rib chiqish va hal etish tartib-taomilini boshlashga asos bo'luvchi nizoli holat.

Elektron to'lov vositasi (ETV)

texnik vositalar, axborot texnologiyalari va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda naqdsiz shaklda pul mablag'larini o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarni shakllantirish, tasdiqlash va yuborish imkonini beruvchi usul yoki qurilma (bank kartalari (yoki ularning rekvizitlari), mobil ilovalar, internet-banking, elektron hamyonlar).

Emissiya

Karta egalari tomonidan Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Kartalarni muomalaga chiqarish bo'yicha Ishtirokchining faoliyati.

Emitent

Emissiyani amalga oshiruvchi Ishtirokchi.

Ekvaer

Ekvaerlik faoliyatini amalga oshiruvchi Ishtirokchi.

Ekvayring

Kartalar (Karta rekvizitlari)dan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalarni o'tkazishni ta'minlash, ushbu Operatsiyalar bo'yicha SXKK bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, Karta egalariga naqd pul mablag'larini berish hamda mazkur Qoidalarga muvofiq boshqa Operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha Ishtirokchining faoliyati.

Hisob-kitob markazi

Tizim doirasidagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha Ishtirokchilarning pul mablag'larini hisobvaraqlaridan hisobdan chiqarish va hisobvaraqlariga kiritish to'g'risidagi topshiriqlari bajarilishini ta'minlovchi Banklararo universal netting axborot tizimi (MUNIS).

Ishtirokchi

Operator bilan Tizimda ishtirok etish (protsessing

	markazida xizmat ko'rsatish) to'g'risida shartnoma tuzgan va Qoidalariga qo'shilgan bank.
Ishtirokchining hisobvarag'i (Hisobvaraq)	Ishtirokchining boshqa Ishtirokchilar va/yoki Tizimning boshqa subyektlari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Hisob-kitob markazidagi vakillik hisobvarag'i.
Karta	Ishtirokchi tomonidan emissiya qilingan, Karta egasiga terminallar yoki aloqa kanallari orqali to'lovlarni amalga oshirish, naqd pul mablag'larini olish, valyuta ayirboshlash hamda bank kartasi Emitenti tomonidan belgilangan va uning shartlari asosida boshqa Operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron to'lov vositasi.
Karta egasi	Emitent bilan tuzilgan shartnoma asosida Mijoz sifatida Kartadan foydalanuvchi jismoniy shaxs yoki Mijozning vakolatli vakili bo'lgan boshqa jismoniy shaxs.
Kartaning PIN-kodi (PIN, PIN-kod)	Karta egasi tomonidan Operatsiyalarni amalga oshirishda Operatsiyani tasdiqlash uchun foydalaniladigan hamda Karta egasining autentifikatsiyasini ta'minlaydigan Kartaning shaxsiy identifikatsiya raqami (maxfiy kod).
Logotip	Ishtirokchilar tomonidan Kartalarga joylashtirish, Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilmalarni belgilash, Karta egalariga mazkur qurilmalarning joylashgan joyi to'g'risida ma'lumot berish hamda reklama mahsulotlarini tayyorlash uchun foydalaniladigan grafik belgi, tasvir, emblema yoki ramz.
Mijoz	Emitent bilan Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi shartnoma tuzgan jismoniy yoki yuridik shaxs.
Noxush hodisa	Tizim faoliyat yuritishining belgilangan tartibi va/yoki axborot xavfsizligi hamda axborotni himoya qilish talablarining buzilishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan hodisa.
Operator (Tizim Operatori)	“Milliy banklararo protsessing markazi” AJ bo'lib, Tizim Qoidalarini belgilaydi va ularning Ishtirokchilar/Subyektlar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi, Tizim faoliyat yuritishini hamda Ishtirokchilar va ularning Mijozlariga elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha xizmatlardan foydalanish imkoniyatini, elektron xabarlar almashinuvini ta'minlaydi, shuningdek Qoidalariga muvofiq Tizim Ishtirokchilari/Subyektlarining axborot-kommunikatsion o'zaro hamkorligi bilan bog'liq boshqa harakatlarni amalga oshiradi.
Operator komissiyasi	Operator tomonidan Tizim doirasida ko'rsatilgan xizmatlar

Operatsiya

uchun Tariflarga muvofiq Ishtirokchidan undiriladigan to'lov.

Karta egasi tomonidan amalga oshirilgan harakat bo'lib, uning natijasida:

- (a) Karta orqali pul mablag'larini o'tkazish amalga oshiriladigan — Moliyaviy operatsiya (moliyaviy so'rov);
- (b) pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq bo'lmagan — Nomoliyaviy operatsiya (nomoliyaviy so'rov) hisoblanadi.

PCI DSS (Payment Card Industry Data Security Standard)

to'lov kartalari industriyasining ma'lumotlar xavfsizligi standarti bo'lib, To'lov kartalari industriyasi ma'lumotlar xavfsizligi standartlari bo'yicha Kengash tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur standart Kartalar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarida ma'lumotlar xavfsizligiga qo'yiladigan talablarni, shuningdek to'lov tizimlarini xavfsiz ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash va ekspluatatsiya qilish qoidalarini belgilaydi.

Savdo-xizmat ko'rsatish korxonasi (SXKK)

Karta egalariga realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisob-kitoblarda Tizim Kartalaridan elektron to'lov vositasi sifatida foydalanish maqsadida Ekvaer bilan shartnomaviy munosabatlarini o'rnatgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

SXKK toifa kodi (MCC-kod)

SXKKning faoliyat turi tasnifiga muvofiq Ekvaer tomonidan birlashtiriladigan toifa kodi.

Tavakkalchilik

Tizimning uzluksiz faoliyat yuritishi, xavfsizligi va/yoki to'g'ri ishlashining buzilishiga, moliyaviy yo'qotishlarga va/yoki obro'siga putur yetkazilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan voqea va/yoki holatlarning yuzaga kelish ehtimoli.

Tizimdagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi (TBT)

Operator va Ishtirokchilarning Tizimdagi tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirishga qaratilgan jarayonlari, nazorat choralari hamda javobgarligi majmui.

Terminal, POS-terminal

Ishtirokchining tarkibiy bo'linmasida yoki SXKKda Ishtirokchi yoki SXKKning vakolatli xodimlari ishtirokida Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish, shuningdek tegishli Operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlarni shakllantirish uchun mo'ljallangan qurilma.

Tizim subyektlari

Operator, Ishtirokchilar, Hisob-kitob markazi va to'lov tashkilotlari.

Tizimning axborot resursi

Ishtirokchiga Tizimning turli axborot materiallari va xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi axborot tizimi.

Tizimning normativ hujjatlari

amaldagi tahrirdagi Qoidalar, standartlar, texnik spetsifikatsiyalar, reglamentlar, operatsion byulletenlar (yo'riqnomalar), uslubiy tavsiyalar, mahsulotlar va xizmatlar bo'yicha qo'llanmalar, xavfsizlik talablari hamda Tizim tomonidan e'lon qilingan boshqa bajarilishi majburiy bo'lgan hujjatlarni, shuningdek ularga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalarni o'z ichiga oluvchi Tizimning normativ hujjatlari majmui.

Qurilmalar tarmog'i

Karta yoki uning rekvizitlaridan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan POS-terminallar, Bankomatlar va boshqa qurilmalar majmui.

1.3. Qoidalarining majburiyligi va ularni qo'llash

Mazkur Qoidalar Tizimning barcha Ishtirokchilari tomonidan bajarilishi majburiydir.

Mazkur Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida Tizimning faoliyat yuritishi jarayonida yuzaga keladigan Operator va Ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi hamda faqat O'zbekiston Respublikasi hududida Tizim doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Tizim doirasida faoliyatni amalga oshirishda Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya qilishlari shart. Tizim doirasida amalga oshiriladigan barcha Operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bo'lishi lozim.

Mazkur Qoidalar talablari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida amalga oshirilgan Operatsiyalar yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlar tegishli davlat qonunchiligi, milliy va (yoki) xalqaro to'lov tizimlari qoidalari, shuningdek bunday Operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladigan xalqaro shartnomalar, kelishuvlar va boshqa hujjatlar shartlari bilan tartibga solinadi.

Transchegaraviy Operatsiyalarni amalga oshirishda yoki xorijiy to'lov tizimlari infratuzilmasidan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalar yuzasidan kelib chiqadigan munosabatlarni tartibga solishda mazkur Qoidalar bilan bir qatorda tegishli to'lov tizimlari qoidalari, tuzilgan kelishuvlar va shartnomalar shartlari, shuningdek tegishli qonunchilik normalari qo'llaniladi.

Mazkur Qoidalar qo'shilish faqatgina ularni to'liq hajmda, hech qanday izohlar, istisnalar yoki o'zgartirishlarsiz qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

1.4. Operatorning boshqa to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorligi

Tizimning faoliyat yuritishini ta'minlash, rivojlantirish va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Operator O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining to'lov tizimlari, xorijiy davlatlarning milliy to'lov tizimlari hamda xalqaro to'lov tizimlari bilan hamkorlikni amalga oshirishga haqli.

Hamkorlik Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasining to'lov tizimlari, xorijiy davlatlarning milliy to'lov tizimlari va xalqaro to'lov tizimlari bilan tuziladigan shartnomalar, kelishuvlar, memorandumlar, texnik reglamentlar hamda boshqa hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Bunday hamkorlik doirasida Operator quyidagilarga haqli:

- to'lov tizimlarining texnologik integratsiyasini ta'minlash;
- Operatsiyalarni qayta ishlash va ularni yo'naltirishni tashkil etish;
- Operatsiyalarni qayta ishlash, tavakkalchiliklarni boshqarish va firibgarlikning oldini olish uchun zarur bo'lgan axborot almashinuvini ta'minlash;
- qo'shma (kobeyjing) to'lov vositalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- Ishtirokchilar uchun majburiy bo'lgan texnik spetsifikatsiyalar, reglamentlar, standartlar va bunday

hamkorlik doirasida Operatsiyalarni amalga oshirish xususiyatlarini tartibga soluvchi boshqa hujjatlarni tasdiqlash;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa hamkorlik shakllarini amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasining to‘lov tizimlari, xorijiy davlatlarning milliy to‘lov tizimlari va xalqaro to‘lov tizimlari infratuzilmasidan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishda Ishtirokchilar mazkur Qoidalarga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarga zid bo‘lmagan qismida tegishli to‘lov tizimlarining majburiy talablariga rioya qilishlari shart.

2. Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, logotiplar va ularni foydalanish qoidalari

Operator Kartalar va Tizim tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar/ishlarni individuallashtirish uchun mo‘ljallangan Tizimning tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarining huquq egasi hisoblanadi. Operator O‘zbekiston Respublikasi hududi ichida hamda tashqarisida Tizim mahsulotlari va xizmatlari/ishlarining taniqliligi hamda e‘tirof etilishini ta‘minlash maqsadida Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplaridan, shuningdek Tizim mahsulotlari va xizmatlari/ishlaridan foydalanishda ularning yaxlitligi, xavfsizligi va himoyalanganligini ta‘minlash uchun Kartalar dizayniga qo‘yiladigan talablar hamda tegishli standartlarni belgilaydi.

Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplarining tavsifi, ularni joylashtirish tartibi hamda ulardan foydalanish shartlari Operator tomonidan belgilanadi.

Ishtirokchilarning majburiyatlari:

- Emissiya qilingan Kartalarda Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplarini joylashtirish;

- Karta yordamida Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan barcha qurilmalarda, shuningdek Karta egalariga xizmat ko‘rsatish joylarida Karta yordamida Operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati to‘g‘risida Karta egalarini xabardor qilish maqsadida Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplarini joylashtirishni ta‘minlash;

- o‘zlari (yoki ularning topshirig‘iga ko‘ra) mustaqil ravishda tayyorlaydigan hamda Tizim nomiga havola mavjud bo‘lgan yoki Tizim nomi tilga olingan va/yoki Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va/yoki Logotiplari qo‘llanilgan barcha materiallarni kelishish uchun Operatorga taqdim etish;

- Tizimdagi ishtiroki tugatilgan taqdirda Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplaridan foydalanishni yoki ularni joylashtirishni darhol to‘xtatish.

Ishtirokchilar Operatorning oldindan yozma roziligi bilan quyidagilarga haqli:

- boshqa to‘lov tizimlaridagi ishtiroki doirasida ular tomonidan Emissiya qilingan Kartalarda joylashtirish uchun Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va Logotiplaridan foydalanish;

- Kartalarda boshqa to‘lov tizimlarining tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini joylashtirish;

- Kartalarda uchinchi shaxslarning (aviakompaniyalar, savdo tarmoqlari va boshqalar) tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilarini joylashtirish.

Uchinchi shaxslarning (aviakompaniyalar, savdo tarmoqlari va boshqalar) tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari)ni Kartalarda joylashtirish faqat mazkur tovar belgilari huquq egalarining roziligi yoki ruxsati mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshirilishi mumkin. Operator Ishtirokchidan Kartalarda joylashtiriladigan tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilari huquq egalarining roziligi yoki ruxsatini taqdim etishni talab qilishga haqli, Ishtirokchi esa ularni Operator talabida ko‘rsatilgan tartib va muddatlarda taqdim etishi shart. Ishtirokchi taqdim etilgan ma‘lumotlar va hujjatlarning haqqoniyiligi uchun javobgar hisoblanadi.

Boshqa hollarda Tizimning tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va logotiplari faqatgina Operatorning oldindan berilgan yozma roziligi bilan ishlatilishi mumkin, bunda taqiqning mavjud emasligi rozilik (ruxsat) deb hisoblanmaydi.

Mazkur Qoidalarga qo‘shilish orqali Ishtirokchi Operatorga Ishtirokchining nomi, tovar belgilari va xizmat ko‘rsatish belgilaridan Tizim tovarlari, ishlari va xizmatlarini reklama qilish hamda ilgari surish maqsadida to‘lov undirilmasdan foydalanish huquqini beradi. Mazkur huquq Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki davomida, biroq

Ishtirokchining ko‘rsatilgan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlari amal qilish muddatidan oshmagan vaqt mobaynida amal qiladi..

Bunday foydalanish natijasida Operator tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilgan taqdirda, Ishtirokchi o‘z kuchi va mablag‘lari hisobidan Operatorni bunday huquq buzilishlari bilan bog‘liq barcha oqibatlardan, shu jumladan huquqlari buzilgan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog‘liq oqibatlardan himoya qilish majburiyatini oladi.

Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalariga nisbatan bo‘lgan huquqlari buzilgan taqdirda, bunday buzilishlar uchun javobgarlik Ishtirokchi zimmasiga yuklanadi. Ishtirokchi o‘z kuchi va mablag‘lari hisobidan Operatorni bunday buzilishlar bilan bog‘liq barcha oqibatlardan, shu jumladan huquqlari buzilgan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bilan bog‘liq oqibatlardan himoya qilish majburiyatini oladi.

3. Operator va Ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik

3.1. Operatorning huquq va majburiyatlari

Operatorning majburiyatlari:

- Tizim Qoidalari va Tizimning me‘yoriy hujjatlarini belgilash, ularning Ishtirokchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilishni tashkil etish va amalga oshirish;
- Tizimni rivojlantirish strategiyasini belgilash va amalga oshirish;
- Mazkur Qoidalar va Tizimning me‘yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Tizimdagi tavakkalchiliklarni boshqarish tizimini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonlarini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Tizimning uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlash;
- To‘lov infratuzilmasi xizmatlari onlayn rejimda uzluksiz ko‘rsatilishini ta‘minlash, shuningdek to‘lov infratuzilmasi xizmatlari ko‘rsatilishining to‘xtatilishi (tugatilishi) holatlari va sabablari to‘g‘risida bunday to‘xtatilgan kuni Ishtirokchilarni xabardor qilish;
- Tizimning me‘yoriy hujjatlariga muvofiq Ishtirokchilar bilan nizolarni sudgacha ko‘rib chiqish imkoniyatini ta‘minlash;
- Ishtirokchilar ko‘rsatilayotgan xizmatlardan teng va ochiq foydalanish imkoniyatini ta‘minlash;
- Ishtirokchilardan kelib tushadigan amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risidagi fayllarni (kliring fayllarini) mazkur Qoidalar va Tizimning boshqa me‘yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va shartlar asosida, bunday fayllarda ko‘rsatilgan fayllarni shakllantirish sanasi/davri va Operatsiyalarni amalga oshirish sanasidan qat‘i nazar, agar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur Qoidalarda yoki Tizimning me‘yoriy hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, qabul qilish, qayta ishlash va yo‘naltirishni ta‘minlash;
- Bank sirining saqlanishini, axborot xavfsizligini ta‘minlash vositalari va usullari to‘g‘risidagi axborot, shaxsga doir ma‘lumotlar hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy himoya qilinishi lozim bo‘lgan boshqa axborotlarning himoya qilinishini ta‘minlash;
- Tizim Qoidalari, Tariflari va Tizimning me‘yoriy hujjatlarini Operatorning rasmiy veb-saytida joylashtirish.

Operator quyidagi huquqlarga ega:

- Tizim Qoidalarga, Tariflarga va Tizimning me‘yoriy hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- Tizimning faoliyat yuritish shartlarini o‘zgartirish;
- Ishtirokchilarning Tizim doirasidagi faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni so‘rash va ushbu ma‘lumotlarning belgilangan muddatlarda taqdim etilishini talab qilish;
- Mijozning pul mablag‘lari xavfsizligini ta‘minlash, ruxsatsiz/disputli Operatsiyalarning oldini olish, shuningdek operatsion tavakkalchiliklarni boshqarish maqsadida ETVdan foydalangan holda amalga oshirilgan shubhali operatsiyalarni monitoring qilish va aniqlash;

– mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlariga Ishtirokchilar tomonidan rioya etilishini, shu jumladan Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplaridan foydalanilishini, Ishtirokchilarning Qoidalarda belgilangan majburiyatlari va javobgarligi doirasida nazorat qilish;

– vaziyat aniqlashtirilgunga va Mijoz tomonidan (qo'ng'iroq va/yoki SMS orqali) ETVdan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalarni, shu jumladan Kartalarni, POS-terminallarni, Bankomatlarni va boshqa o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalarini amalga oshirilgan Operatsiyalarning qonuniyligi tasdiqlangunga qadar bloklash va/yoki vaqtincha to'xtatib turish, va natijasi yuzasidan Mijoz/Ishtirokchini amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida xabardor qilish;

– mazkur Qoidalar muvofiq ayrim Ishtirokchilar tomonidan Emissiya qilingan Kartalar bo'yicha Operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turish;

– Ishtirokchiga Operator tomonidan belgilangan muddatlarda Kartalarni, kartalar bo'yicha hisobvaraqlarni, boshqa ETVlarni, Operatsiyalarni yoki boshqa to'lov vositalarini to'xtatib turish, cheklash yoxud bloklash to'g'risidagi bajarilishi majburiy bo'lgan talablarni (ko'rsatmalarni) yuborish;

– Kartadan mablag'larni akseptsiz hisobdan chiqarish amalga oshirilganda Mijoz — jismoniy shaxsda saqlanishi lozim bo'lgan ijobiy pul mablag'lari qoldig'ining eng kam miqdorini belgilash. Mazkur miqdor Tizim Ishtirokchilari tomonidan Emissiya qilingan Kartalar bo'yicha jismoniy shaxsning barcha kartalar bo'yicha hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari qoldiqlarining jami miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Minimal ijobiy qoldiq miqdori, shuningdek uning o'zgartirilishi Operator tomonidan belgilanadi va tegishli xabarnomani yuborish yo'li bilan Ishtirokchilar e'tiboriga yetkaziladi;

– Ekvayerdan TSP bilan Ekvayring bo'yicha shartnoma tuzilishidan oldin TSPni kompleks tekshirish natijalarini, shu jumladan TSPning ta'sis hujjatlari nusxalarini, tartibga soluvchi organlarning ruxsatnomalarini, litsenziyalarini (agar mavjud bo'lsa) hamda boshqa ma'lumotnoma va/yoki operatsion ma'lumotlarni so'rash;

– Ekvayer tomonidan belgilangan MCC-kodning to'g'riligini nazorat qilish, shuningdek ushbu kodning SXKK tomonidan amalda amalga oshirilayotgan faoliyatiga muvofiq kelmagan taqdirda, uning o'zgartirilishini talab qilish;

– xato amalga oshirilgan har qanday Operatsiyani (hisobga kiritish/hisobdan chiqarish) akseptsiz tartibda bekor qilish;

– ruxsatsiz (frod) Operatsiyalarni amalga oshirish xavflarining oldini olish, aniqlash va kamaytirish maqsadida Ishtirokchilar o'rtasida shubhali (firibgarlik) harakatlari belgilari to'g'risidagi axborot almashinuvini tashkil etish;

– Ishtirokchilardan kelib tushadigan kliring fayllarini qayta ishlash tartibi, ketma-ketligi, shartlari va texnologiyasini mustaqil ravishda belgilash, shu jumladan, tegishli kliring fayllarida mavjud bo'lgan Operatsiyalarning shakllantirilgan sanasi, yuborilgan sanasi, hisobot davri yoki amalga oshirilgan sanasidan qat'i nazar, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur Qoidalarda yoki Tizimning me'yoriy hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ularni qayta ishlash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

– mustaqil ravishda quyidagilarni belgilash:

- cheklov choralari qo'llash uchun asoslarning yetarliligini;
- amalga oshirilayotgan Operatsiyaning xavf darajasini;
- qo'llaniladigan cheklovlar ro'yxatini;
- cheklovlarning amal qilish muddatlarini;
- cheklovlarning amal qilish muddatlarini uzaytirish zarurligini;
- cheklovlarni bekor qilish uchun asoslarni;
- Monitoring tizimining faoliyat yuritish tartibini;
- shubhali Operatsiyalarni aniqlash mezonlari.

– texnik xatolar, Operatsiyalarning takroran kiritilishi, ma'lumotlar almashinuvi formatlarining buzilishi, belgilangan talablarga muvofiq kelmaslik yoki bunday fayllarni to'g'ri qayta ishlashga to'sqinlik qiluvchi boshqa

holatlar aniqlangan taqdirda, kliring fayllarini qayta ishlashni to‘xtatib turish, ularni qayta ishlashni rad etish yoki Ishtirokchilardan qo‘shimcha ma‘lumotlar va (yoki) hujjatlarni so‘rash;

- kliring fayllarini qayta ishlashning davriyligi, soni, vaqti, ketma-ketligi, tartibi, texnologiyasi va boshqa parametrlarini, shuningdek ularni qabul qilish, tekshirish, qayta ishlash, takroran qayta ishlash, rad etish, qayta ishlashni to‘xtatib turish hamda kliring natijalarini shakllantirish tartibini mustaqil ravishda belgilash;

- agar Ishtirokchi ilgari jarima sanksiyalarini qo‘llash to‘g‘risida qaror qabul qilingan xuddi shunday qoidabuzarlikni takroran sodir etsa va (yoki) tegishli qaror qabul qilingan sanadan boshlab 1 (bir) oy davomida bunday qoidabuzarlikni bartaraf etmasa, shuningdek aniqlangan qoidabuzarlik bartaraf etilganligi to‘g‘risidagi yozma bildirishnomani Operatorga taqdim etmasa hamda qo‘llanilgan jarima sanksiyalarini to‘lamasa, Operator Ishtirokchiga nisbatan Tizimdagi funksional imkoniyatlarni vaqtincha cheklash choralarini qo‘llashga haqli;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur Qoidalarda, Tizimning me‘yoriy hujjatlarida va (yoki) Ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

3.2. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

Ishtirokchi Tizim doirasidagi hisob-kitoblarni Hisob-kitob markazida uning nomiga ochilgan Ishtirokchi Hisobvarag‘idan foydalangan holda amalga oshiradi.

Ishtirokchining majburiyatlari:

- o‘z faoliyatini Tizim Qoidalariga muvofiq amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar, Tizimning me‘yoriy hujjatlari hamda shartnomalar talablariga, shu jumladan Ishtirokchi tomonidan Tizim doirasida xizmatlar ko‘rsatish uchun jalb etilgan shaxslar tomonidan ham rioya etilishini ta‘minlash;

- Operator tomonidan belgilangan muddatlarda Kartalarni, karta Hisobvaraqlarini, boshqa ETVlarni, operatsiyalarni yoki boshqa to‘lov vositalarini to‘xtatib turish, cheklash yoki bloklash to‘g‘risidagi Operatorning bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarini (ko‘rsatmalarini) zudlik bilan bajarish;

- mazkur Qoidalar, texnik reglamentlar va Tizimning boshqa me‘yoriy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirilgan tranzaksiyalar to‘g‘risidagi fayllarni (kliring fayllarini) o‘z vaqtida shakllantirish va Operatorga yuborishni ta‘minlash;

- Operatorga yuboriladigan kliring fayllarida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarning qonuniyligi, huquqiy asosiligi, ishonchliligi, to‘liqligi, aktualligi, to‘g‘riligi va asoslanganligi uchun, bunday fayllarda mavjud Operatsiyalarning amalga oshirilgan sanasi, ushbu fayllarning shakllantirilgan sanasi, yuborilgan sanasi yoki Operator tomonidan qayta ishlangan sanasidan qat’i nazar, to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

- oldingi hisob-kitob davrlarida amalga oshirilgan Operatsiyalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan kliring fayllarini yuborish, shuningdek ularni yuborish, qayta ishlash va Tizim Ishtirokchilari o‘rtasidagi hisob-kitoblarda aks ettirish bilan bog‘liq barcha huquqiy, moliyaviy, operatsion va boshqa oqibatlar uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga olish;

- Tizimning boshqa Ishtirokchilari bilan yuzaga keladigan kliring fayllarining mazmuni, ularda aks ettirilgan Operatsiyalar, o‘zaro hisob-kitob summolari, taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi, fayllarni yuborish muddatlari hamda bunday fayllarni shakllantirish va yuborish natijasida yuzaga keladigan boshqa holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan barcha kelishmovchiliklar, nizolar va e‘tirozlarni mustaqil ravishda tartibga solish;

- Operatorning talabiga ko‘ra, yuborilgan kliring fayllarida mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarning qonuniyligi, asoslanganligi, ishonchliligi va to‘g‘riligini tasdiqlovchi hujjatlar, ma‘lumotlar, tushuntirishlar, hisob-kitoblar, ko‘chirmalar, dastlabki hisob hujjatlarining nusxalari, elektron hujjatlar, shuningdek boshqa materiallar va axborotlarni zudlik bilan taqdim etish. Hujjatlarning asl nusxalarini yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tezkor taqdim etish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, Ishtirokchi dastlab ularning elektron nusxalarini (skanerlangan nusxalarini), elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan nusxalarini yoki boshqa hujjatlar va ma‘lumotlarni elektron pochta, axborot tizimlari, elektron hujjat aylanishi yoki tomonlar kelishgan boshqa aloqa kanallari orqali Operatorga yuborishga haqli, bunda asl nusxalar yoki tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar

tomonlar kelishgan muddatlarda keyinchalik taqdim etiladi;

- Tizim doirasida o'ziga ko'rsatilgan xizmatlar haqini, boshqa Ishtirokchilarga to'lanadigan mukofotlarni hamda Tizim Qoidalari va Tariflarida nazarda tutilgan boshqa to'lovlarni Tizim Qoidalari va Tariflarida belgilangan tartibda amalga oshirish;

- Kartalar bo'yicha Operatsiyalarni amalga oshirishda axborot himoyasini Tizim Qoidalari, Tizimning me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro xavfsizlik standartlari (PCI DSS) talablariga muvofiq ta'minlash;

- Mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan TBT talablariga rioya etish;

- Tizim tavakkalchiliklarini monitoring qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni Tizimning me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Operatorga taqdim etish;

- ETVlarning komprometatsiya qilinishi, drop-kartalar aniqlanishi, noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati hamda Tizim xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar aniqlangan barcha hollarda Operatorni zudlik bilan xabardor qilish;

- Operatorning bajarilishi majburiy bo'lgan talablari va bildirishnomalarini bajarish;

- Operatorning so'roviga ko'ra hujjatlar, ma'lumotlar va tushuntirishlarni 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yoki Operator tomonidan ko'rsatilgan (belgilangan) boshqa muddatda taqdim etish;

- Noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati va tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan boshqa Operatsiyalarni tekshirishda ko'maklashish;

- dalillar butunligini va mavjudligini saqlanishini ta'minlash;

- sodir etilgan insidentlarning takroran sodir etilishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rish;

- Tizimning uzluksiz ishlashi va xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan insidentlar va hodisalar to'g'risida Operatorni zudlik bilan xabardor qilish;

- Tizim Qoidalari, me'yoriy hujjatlari va Tariflarida belgilangan shartlar asosida Ishtirokchilarning Kartalariga o'z Qurilmalar tarmog'ida xizmat ko'rsatishni amalga oshirish;

- Kartalarni tayyorlash va Emissiya qilish jarayonida mazkur Qoidalar hamda Tizimning me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash;

- Ishtirokchining Kartalari va qurilmalari orqali amalga oshirilgan Operatsiyalar natijasi kelib chiqadigan barcha majburiyatlar bo'yicha boshqa Ishtirokchilar oldida javobgar bo'lish;

- Disputli va/yoki ruxsatsiz amalga oshirilgan Operatsiyalarni tekshirishda Operatorga har tomonlama ko'maklashish hamda Operator tomonidan ko'rsatilgan (agar boshqa manzil taqdim etilmagan bo'lsa, cybersecurity@nmpc.uz, dispute@nmpc.uz elektron pochta manzillaridan) olingan so'rovga ko'ra talab etilgan ma'lumotlarni taqdim etish;

- ruxsatsiz va (yoki) Disputli Operatsiyalar masalalari bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishga vakolatli bo'lgan xodimlarining amaldagi aloqa ma'lumotlarini (F.I.Sh., korporativ elektron pochta manzili va xizmat telefoni (mavjud bo'lsa) Operatorga taqdim etish;

- Ishtirokchi o'z xodimlarining, shuningdek Tizimdagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida o'z majburiyatlarini bajarish uchun jalb etilgan uchinchi tomon tashkilotlari xodimlarining harakatlari va (yoki) harakatsizligi uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

- nizoli vaziyatlarni tekshirishda Operatorga ko'maklashish;

- tashkiliy-huquqiy shakli, qayta tashkil etilishi, joylashgan joyi va pochta manzili, bank rekvizitlari o'zgarganligi, shuningdek Ishtirokchining mazkur Qoidalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday o'zgarishlar, shu jumladan bankrotlik va bank faoliyatini amalga oshirish litsenziyasidan mahrum etilganlik holatlari va boshqa holatlar to'g'risida Operatorni o'z vaqtida xabardor qilish;

- Tizimni rivojlantirishga ko'maklashish;
- Tizim Qoidalari, me'yoriy hujjatlari hamda Ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan boshqa majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash.

Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

- Operator tomonidan Ishtirokchiga taqdim etilgan BIRlar asosida o'zining (individual) dizaynidagi, Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari joylashtirilgan Kartalarni chiqarish;
- Tizimda ishtirok etish doirasida o'zi tomonidan Emissiya qilingan barcha Kartalar bo'yicha Tizim Qurilmalar tarmog'ida Tizim Qoidalari, me'yoriy hujjatlari va Tariflarida belgilangan shartlar asosida ekvayring xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;
- Tizim faoliyatini takomillashtirish, Tizim doirasida yangi xizmatlarni joriy etish hamda Tizim faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha takliflar kiritish;
- Operator tomonidan qo'llanilgan jarima choralari yoki Tizimdagi funksional imkoniyatlarni cheklash bo'yicha boshqa choralardan ushbu shikoyat kiritish;
- mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlari, Ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomalar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanish.

4. Ishtirokchilar ro'yxatini yuritish tartibi

Operator Ishtirokchilar ro'yxatini yuritadi va Ishtirokchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni Tizimning Axborot resursida joylashtiradi.

Ro'yxat har bir Ishtirokchi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- Ishtirokchining nomi;
- Ishtirokchining joylashgan joyi (manzili);
- Ishtirokchining aloqa telefoni va rasmiy veb-sayti manzili.

5. Tizimga qo'shilish va undan chiqish tartib-taomillari

5.1. Tizimga qo'shilish tartibi

Tashkilot «HUMO» to'lov tizimi doirasida protsessing xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Operator bilan shartnoma tuzish orqali Qoidalarga qo'shiladi. Qoidalarga qo'shilish Ishtirokchi tomonidan Qoidalarining hech qanday istisno va cheklovlarsiz to'liq qabul qilinganligini anglatadi.

5.2. Tizimda ishtirok etishni to'xtatib turish va tugatish tartibi

Tizimdagi ishtirokni tugatish va to'xtatib turish quyidagi asoslarga ko'ra amalga oshirilishi mumkin:

- Ishtirokchining tashabbusiga ko'ra;
- Operatorning tashabbusiga ko'ra;
- tomonlarning kelishuviga ko'ra;
- mazkur Qoidalar, Tizimning me'yoriy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Tizimdagi ishtirokni Ishtirokchining tashabbusiga ko'ra tugatish.

Ishtirokchi bir tomonlama tartibda Tizimdagi ishtirokini tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunday qaror qabul qilingan taqdirda, Ishtirokchi Operatorga ishtirokni tugatish to'g'risidagi Arizani yuborishi shart.

Ishtirokni tugatish to'g'risidagi Arizada Ishtirokchi Tizim doirasida Kartalar bo'yicha va Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida amalga oshiriladigan barcha Operatsiyalarni bajarishni to'xtatishi lozim bo'lgan sana ko'rsatilishi kerak.

Ishtirokni tugatish to'g'risidagi Ariza Operator tomonidan olinganidan so'ng, Arizada ko'rsatilgan ishtirokni tugatish sanasidan boshlab, Operator Ishtirokchining BIRlarini bloklash hamda Kartalar bo'yicha va

Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida amalga oshiriladigan Operatsiyalarni qayta ishlashni to'xtatish choralari

ko'radi.

Ishtirokchi ishtiroki tugatiladigan sanagacha quyidagilarni bajarishi shart:

- Ishtirokchi sifatida Tizimdagi faoliyati davrida Tizimning barcha Ishtirokchilari oldida yuzaga kelgan barcha moliyaviy va boshqa majburiyatlarini bajarish;
- mazkur Qoidalarga muvofiq barcha maxfiy ma'lumotlarni Operatorga topshirish;
- Ishtirok etishni tugatish sanasidan keyingi 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmagan holda, Ishtirokchi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan barcha Bankomatlar, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminallari, POS terminallari va Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan boshqa qurilmalardan, shuningdek Kartalar egalari mazkur qurilmalarning joylashgan joyi to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlardan Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari tushirilgan stikerlar hamda axborot materiallarini olib tashlash.

Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki Kartalar bo'yicha yoki Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida oxirgi Operatsiya amalga oshirilgan sanadan e'tiboran kamida 90 (to'qson) kalendar kun o'tgandan so'ng, shuningdek Ishtirokchining barcha Ishtirokchilar oldida moliyaviy majburiyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda to'liq tugatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarni tartibga solish muddati tugaganidan so'ng, Operator ushbu Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki ixtiyoriy tartibda tugatilganligi va unda moliyaviy majburiyatlar mavjud emasligi to'g'risida Hisob-kitob markazini yozma ravishda xabardor qiladi. Hisob-kitob markazi o'zining ichki reglamentlariga muvofiq tegishli tartib-taomillarni amalga oshiradi.

Tizimdagi ishtirokning tugatilishi Ishtirokchini uning Tizimdagi faoliyati doirasida yuzaga kelgan majburiyatlardan ozod qilmaydi.

Operatorning tashabbusiga ko'ra Tizimdagi ishtirokni to'xtatib turish va tugatish.

Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki Tizim Qoidalar talablarini buzish holatlari aniqlangan yoki Ishtirokchi sifatidagi o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmagan taqdirda, shu jumladan quyidagi hollarda Operator tomonidan to'xtatib turilishi mumkin:

- Ishtirokchining boshqa Ishtirokchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi;
- Tizimning ishchanlik obro'siga zarar yetkazilishi;
- Hisob-kitob markazida ochilgan Ishtirokchining Hisobvarag'iga Operatsiyalar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun taqdim etilgan talablarni qanoatlantirish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Hisobvaraqdagi pul mablag'lariga xatlov qo'yilishi yoki Hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalar to'xtatib turilishi sababli;
- Ishtirokchi tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvishga) qarshi kurashish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida barcha zarur choralarni amalga oshirmasligi;
- Ishtirokchi tomonidan Tizim faoliyatining uzluksizligini buzish xavfini keltirib chiqaruvchi salbiy omillar aniqlangan taqdirda;
- Ishtirokchi tomonidan Tizimda axborotni himoya qilishni ta'minlash bo'yicha belgilangan talablarning buzilishi aniqlangan taqdirda, mazkur buzilishlar Tizim faoliyatining xavfsizligiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lsa;
- Ishtirokchi tomonidan Tizimda TBT talablarining bajarilmasligi;
- Ishtirokchi tomonidan ketma-ket 6 (olti) kalendar oy davomida hech qanday Operatsiyalar amalga oshirilmagan taqdirda.

Operator Ishtirokchining Tizimdagi ishtirokini to'xtatib turish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Ishtirokchiga Tizimdagi ishtiroki to'xtatib turilganligi haqida, Operator tomonidan mazkur qaror qabul qilinishiga asos bo'lgan qoidabuzarlik ko'rsatilgan hamda ushbu qoidabuzarlikni bartaraf etish muddati belgilangan yozma bildirishnoma yuboradi.

Ishtirokchining Tizimdagi faoliyati Operatorning bildirishnomasida ko'rsatilgan qoidabuzarlik bartaraf etilgan taqdirda qayta tiklanadi.

Agar qoidabuzarlik belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, Operator Ishtirokchining Tizimdagi ishtirokini tugatish tartib-taomilini boshlashga haqli.

Ishtirokni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng, Operator Ishtirokchiga uning ishtiroki tugatilishining asoslari hamda tugatish sanasi ko'rsatilgan yozma bildirishnoma yuboradi.

Operator Ishtirokchining BIRlarini bloklash hamda Operatsion markaz tomonidan Kartalar bo'yicha va Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida amalga oshiriladigan Operatsiyalarga ishlov berishni to'xtatish choralarini ko'radi.

Operator tomonidan Tizimdagi ishtirokni tugatish to'g'risidagi bildirishnoma yuborilgan sanadan boshlab Tizimdagi ishtirok tugatiladigan sanagacha bo'lgan davrda Ishtirokchi quyidagilarga majbur:

- Ishtirokchi sifatida Tizimdagi faoliyati davrida Tizim Ishtirokchilari oldida yuzaga kelgan barcha moliyaviy va boshqa majburiyatlarini bajarish;
- mazkur Qoidalarga muvofiq barcha maxfiy ma'lumotlarni Operatorga topshirish;
- Ishtirokchi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan barcha Bankomatlar, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminallari, POS terminallari va Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan boshqa qurilmalardan, shuningdek Kartalar egalarini mazkur qurilmalarning joylashgan joyi to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlardan Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari tushirilgan stikerlar hamda axborot materiallarini Ishtirokchi tomonidan ishtirokni tugatish to'g'risidagi bildirishnoma olingan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmagan holda olib tashlash.

Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki Kartalar bo'yicha yoki Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida oxirgi Operatsiya amalga oshirilgan sanadan e'tiboran kamida 90 (to'qson) kalendar kun o'tgandan so'ng, shuningdek Ishtirokchining Tizim Ishtirokchilari oldida moliyaviy majburiyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda tugatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarni tartibga solish muddati tugaganidan so'ng, Operator ushbu Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki tugatilganligi va unda moliyaviy majburiyatlar mavjud emasligi to'g'risida Hisob-kitob markazini yozma ravishda xabardor qiladi.;

Tizimdagi ishtirokning tugatilishi Ishtirokchini uning Tizimdagi faoliyati doirasida yuzaga kelgan majburiyatlardan ozod qilmaydi.

Tizimdagi ishtirokni tugatishning muqarrar shartlari quyidagilardan iborat:

- Ishtirokchining bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi bekor qilinganligi;
- Ishtirokchining bankrot (to'lovga qobiliyatsiz) deb topilganligi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Tomonlarning kelishuviga ko'ra Tizimdagi ishtirokni to'xtatib turish va tugatish

Tomonlar Ishtirokchining Tizimdagi ishtirokini to'xtatib turish yoki tugatish sanasi hamda ushbu sanadan boshlab Ishtirokchi tomonidan Tizim doirasida Kartalar bo'yicha va Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida Operatsiyalarni amalga oshirish to'xtatilishi sharti ko'rsatilgan Shartnomaga qo'shimcha kelishuv imzolashlari mumkin

Ishtirokchi uning Tizimdagi ishtiroki tugaydigan sanagacha quyidagilarga majbur:

- Ishtirokchi sifatida Tizimdagi faoliyati davrida Tizim Ishtirokchilari oldida yuzaga kelgan barcha moliyaviy va boshqa majburiyatlarini bajarish;
- mazkur Qoidalarga muvofiq barcha maxfiy ma'lumotlarni Operatorga topshirish;
- Ishtirokchi tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan barcha Bankomatlar, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminallari, POS terminallari va Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan boshqa qurilmalardan, shuningdek Kartalar egalarini mazkur qurilmalarning joylashgan joyi to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlardan Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari tushirilgan

stikerlar hamda axborot materiallarini Ishtirokchi tomonidan ishtirokni tugatish to'g'risidagi bildirishnoma olingan sanadan e'tiboran 10 (o'n) ish kunidan kechiktirmagan holda olib tashlash.

Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki Kartalar bo'yicha yoki Ishtirokchining Qurilmalar tarmog'ida oxirgi Operatsiya amalga oshirilgan sanadan e'tiboran kamida 90 (to'qson) kalendar kun o'tgandan so'ng, shuningdek Ishtirokchining Tizim Ishtirokchilari oldida moliyaviy majburiyatlari mavjud bo'lmagan taqdirda tugatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan majburiyatlarni tartibga solish muddati tugaganidan so'ng, Operator ushbu Ishtirokchining Tizimdagi ishtiroki tugatilganligi va unda moliyaviy majburiyatlar mavjud emasligi to'g'risida Hisob-kitob markazini yozma ravishda xabardor qiladi. Hisob-kitob markazi o'zining ichki reglamentlariga muvofiq tegishli tartib-taomillarni amalga oshiradi.

Tizimdagi ishtirokning tugatilishi Ishtirokchini uning Tizimdagi faoliyati doirasida yuzaga kelgan majburiyatlardan ozod qilmaydi.

6. Emissiya faoliyati

6.1. Emitentning huquq va majburiyatlari

Emitent Tizimda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari tushirilgan Kartalar Emissiyasini mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq amalga oshiradi;
- Operatoridan olingan Karta egalarining Operatsiyalari bo'yicha Mijozlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- Emitent Kartalaridan foydalangan holda Ekvayerlarning Qurilmalar tarmog'ida amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha Ekvayerlar bilan hisob-kitoblar amalga oshirilishini ta'minlaydi;
- Kartalar Emissiyasi jarayonlarining xavfsizligini ta'minlaydi;
- Emitent Kartalaridan foydalanish qoidalarini ishlab chiqadi hamda Karta egasi tomonidan Karta yo'qotilganda, shikastlanganda yoki undan ruxsatsiz foydalanilganda zararni qoplash tartibini belgilaydi;
- Emitent Kartalaridan foydalangan holda Ekvayerlarning Qurilmalar tarmog'ida amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha yuzaga kelgan nizolarni hal etishda ishtirok etadi.

Emitent quyidagilarga majbur:

- o'z faoliyatini mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirish;
- Kartalarni Emissiya qilishda faqat Operator tomonidan Ishtirokchiga taqdim etilgan BIRlardan foydalanish;
- Tizimning me'yoriy hujjatlarida belgilangan tartibda Kartalar dizaynini Operator bilan kelishish;
- Kartalarni saqlash, tashish va yo'q qilish bo'yicha Tizim tomonidan belgilangan xavfsizlik talablariga rioya etish;
- o'z shtatida Kartalar xavfsizligining barcha jihatlar uchun bevosita mas'ul bo'lgan malakali xodimlarga ega bo'lish, shuningdek quyidagilarga majbur:
 - Kartalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalar bo'yicha ularning noqonuniy foydalanilishi holatlarini aniqlash maqsadida monitoringni amalga oshirish;
 - Kartalardan noqonuniy foydalanish holatlarini tekshirish;
 - Kartalar Emissiyasi bilan bog'liq ishlab chiqarish, shaxsiylashtirish, kodlash, chop etish hamda boshqa jarayonlarni rejalashtirish va nazorat qilish.
- Ekvayer tomonidan mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlari talablariga rioya etilgan holda Emitent Kartalari bo'yicha amalga oshirilgan Operatsiyalar yuzasidan tasdiqlangan Avtorizatsiya summasi doirasida Ekvayerga mablag'larni qoplab berishni ta'minlash;
- Operatorning so'roviga ko'ra Emitent Kartalaridan foydalangan holda Qurilmalar tarmog'ida amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni taqdim etish;

- Karta egalariga Shartnomada nazarda tutilgan usulda ETV yoki Tizimning boshqa to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha Operatsiyalar to'g'risida to'liq ma'lumotlarni taqdim etish;
- Karta egalariga Tizimda Kartalarga xizmat ko'rsatish qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumotlarni taqdim etish hamda Emitent Kartalaridan foydalanish qoidalari bo'yicha maslahatlar berish;
- Karta egalariga Kartalardan foydalanishda yordam ko'rsatish maqsadida kecha-yu kunduz faoliyat yurituvchi qo'llab-quvvatlash xizmatini tashkil etish;
- Tizimning Qurilmalar tarmog'ida Operatsiyalarni amalga oshirish chog'ida yuzaga kelgan Karta egalarining muammolarini hal etishda ko'maklashish;
- Kartalarni tezkor bloklash imkoniyatini ta'minlash, Operatsiyalarni cheklash hamda Operatorning antifraud talablarini, shu jumladan firibgarlik Operatsiyalarining oldini olish va pul mablag'larini o'tkazish zanjirlarini bloklashga oid talablarini bajarish;
- O'z apparat-dasturiy majmuasi mavjud bo'lgan taqdirda:
 - apparat-dasturiy majmuasi faoliyati 1 (bir) soatdan ortiq muddatga rejalashtirilgan to'xtatilishi haqida Operatorni to'xtatish sanasidan kamida 5 (besh) ish kuni oldin xabardor qilish;
 - PCI DSS xavfsizlik standarti talablariga rioya etish.

Emitent quyidagi huquqlarga ega:

- Operator tomonidan Emitentga taqdim etilgan BIRlar asosida Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplari tushirilgan o'ziga xos (individual) dizayndagi Kartalarni emissiya qilish;
- Qurilmalar tarmog'ida Kartalardan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalar bo'yicha Mijozlar bilan moliyaviy munosabatlarni mustaqil ravishda belgilash;
- Tizim Qoidalari va me'yoriy hujjatlarida belgilangan funksional vazifalari hamda majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi tomon tashkilotlarini jalb etish. Mazkur tashkilotlarning faoliyati uchun Tizim Ishtirokchilari oldida javobgarlik Emitent zimmasida bo'ladi.

6.2. BIRlarni taqdim etish tartibi

Operator BIRni Ishtirokchiga faqat u Tizim Ishtirokchisi sifatida Tizimga qo'shilganidan keyin taqdim etishi mumkin. BIR unikal hisoblanadi va undan boshqa Ishtirokchilar foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi..

Ishtirokchi Operator tomonidan o'ziga taqdim etilgan BIRdan foydalanish huquqini boshqa kredit tashkilotlariga berishga haqli emas.

Kartalarning har bir turi (karta mahsuloti) uchun alohida BIRdan foydalanilishi lozim. Turli xil karta mahsulotlarini bitta BIRda birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

Qo'shimcha BIRni olish uchun Ishtirokchi Operatorga tasdiqlangan shakldagi tegishli arizani yuborishi lozim.

Ishtirokchi tasdiqlangan shakldagi tegishli arizani Operatorga yuborish orqali qo'shimcha BIRdan foydalanishni rad etishga haqli. Operator bunday ariza olingan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay BIRni bloklash choralari ko'radi. Operator tomonidan Ishtirokchiga BIR taqdim etilganligi uchun undirilgan komissiya qaytarilmaydi.

6.3. Emitentning mijoz bilan tuzadigan shartnomasiga qo'yiladigan talablar

Emitentning Mijoz bilan tuzilgan Shartnomasi Mijozga Kartalarni taqdim etish hamda ulardan foydalanish qoidalari bilan bog'liq bo'lgan Emitent va uning Mijozni o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi.

Emitent Mijoz bilan tuziladigan Shartnomada quyidagi shartlarni nazarda tutishi shart:

- Karta va ETVdan xavfsiz foydalanishni ta'minlash bo'yicha talablar, shu jumladan:
 - Kartadan, PIN-koddan, OTP-koddan hamda ETVdan foydalanish imkoniyatini uchinchi shaxslarga berishga yo'l qo'ymaslik;
 - PIN-kodni Karta bilan birga saqlamaslik;

- mobil telefon, SIM-karta, elektron pochta hamda ETVdan foydalanish imkoniyati himoya qilinishini ta'minlash;
 - Karta, mobil telefon, SIM-karta yo'qotilganda, ETVdan foydalanish imkoniyati yo'qolganda yoki ma'lumotlarga putur yetkazilganligiga shubha tug'ilganda Emitentni zudlik bilan xabardor qilish.
 - Karta har qanday qonunga xilof maqsadlarda, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish uchun foydalanilmasligi lozim;
 - Kartadan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha haq to'lash yuzasidan Mijozning Emitent oldidagi javobgarligi;
 - Karta egasi tomonidan Emitentni Kartadan ruxsatsiz foydalanish holatlari o'ziga ma'lum bo'lganda, shuningdek Karta yo'qotilganda xabardor qilish tartibi va muddatlariga qo'yiladigan talablar;
 - Emitentning Mijozdan undiriladigan vositachilik haqining miqdori va uni undirish tartibi;
 - Operatsiyalar bo'yicha e'tirozlarni taqdim etish usullari hamda ularni ko'rib chiqish tartibi;
 - Mijozning o'z shaxsiga doir ma'lumotlariga ishlov berishga rozilik berishi to'g'risidagi shartlar, shu jumladan ularni yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), ulardan foydalanish, Emitent tomonidan Operatorga taqdim etish, shuningdek Operator tomonidan shaxsiga doir ma'lumotlarni Tizim Ishtirokchilariga, davlat organlariga, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga, sudlarga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga, boshqa vakolatli davlat organlariga, tashkilotlarga va uchinchi shaxslarga Tizimning faoliyat yuritishi, xizmatlar ko'rsatilishi, Tizim Qoidolari va me'yoriy hujjatlarining bajarilishi, axborot xavfsizligini ta'minlash, huquqqa xilof va (yoki) firibgarlik Operatsiyalarining oldini olish hamda ularni tekshirish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish, shuningdek Ishtirokchilar va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan hollarda va hajmda uzatish. Bunday rozilik shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlariga erishilgunga qadar yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Mijoz tomonidan rozilik qaytarib olingunga qadar shaxsiga doir ma'lumotlarga ishlov berishni muddat bilan cheklamagan holda amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutishi lozim;
 - texnik xatolik oqibatida karta hisobvarag'iga noto'g'ri kirim qilingan yoki Karta bo'yicha foydalanish mumkin bo'lgan qoldiq sifatida aks ettirilgan pul mablag'lari aniqlanganda, Mijozning bu haqda Emitentni zudlik bilan xabardor qilish majburiyati, shuningdek Mijoz tomonidan mazkur pul mablag'laridan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirmaslik hamda noto'g'ri kirim qilish oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan Emitentning qonuniy talablarini bajarish majburiyati;
 - Karta yo'qotilganda, uning rekvizitlari, PIN-kodi, bir martalik parollari yoki autentifikatsiya vositalariga putur yetkazilganligi, shuningdek ruxsatsiz Operatsiyalar amalga oshirilganligiga shubha tug'ilganda Mijozning bu haqda Emitentni zudlik bilan xabardor qilish majburiyati;
 - Mijozni Karta orqali amalga oshirilgan har bir Operatsiya to'g'risida bir yoki bir nechta usul (SMS, Push-bildirishnoma, elektron pochta va boshqa usullar) orqali xabardor qilish, bunda xabardor qilish usullaridan kamida bittasi Mijozga bepul taqdim etilishi lozim;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida, mazkur Qoidalarda yoki Mijoz bilan tuzilgan Shartnomada nazarda tutilgan hollarda Emitentning Karta, elektron to'lov vositasi yoki alohida Operatsiyalardan foydalanishni to'xtatib turish, cheklash yoxud bloklash huquqi;
 - Mijozning bildirishnomalarni olish va Operatsiyalarni tasdiqlash uchun foydalaniladigan mobil telefon raqami, elektron pochta manzili hamda boshqa aloqa ma'lumotlari o'zgarganligi haqida Emitentga zudlik bilan xabar berish majburiyati.
- Emitent bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanilganligini yoxud bank kartasidan undan foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan foydalanilganligini tasdiqlovchi asoslar mavjud bo'lganda, Karta bo'yicha Operatsiyalarni vaqtincha to'xtatib turish hamda Kartani muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Operator Emitent Mijozlarining Emitent tomonidan Mijozlar bilan tuzilgan Shartnoma shartlarini lozim darajada bajarmaganligi yuzasidan e'tirozlarini ko'rib chiqmaydi, biroq bunday e'tirozlarning mavjudligi Ishtirokchining mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini tekshirish uchun asos bo'lishi mumkin.

Operatsiya uni amalga oshirishda Emitent tomonidan nazarda tutilgan autentifikatsiya vositalari, shu jumladan PIN-kodni, OTP-kodni kiritish, ETVda tasdiqlash, biometrik autentifikatsiya yoki Emitent tomonidan nazarda tutilgan boshqa tasdiqlash vositalaridan foydalanilgan bo'lsa, Mijoz tomonidan amalga oshirilgan va tasdiqlangan deb hisoblanadi.

7. Ekvayring faoliyati

7.1. Ekvayerning huquq va majburiyatlari

Ekvayer Tizimda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan Qurilmalar tarmog'iga xizmat ko'rsatadi va uni boshqaradi;
- mazkur Qoidalarda belgilangan Operatsiyalarni Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida amalga oshiradi;
- Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha nizolarni hal etishda ishtirok etadi;
- Qurilmalar tarmog'ining xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

Ekvayer quyidagilarga majbur:

- Tizimdagi ishtiroki doirasida faoliyatni mazkur Qoidalar va Tizimning me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiq amalga oshirish;
- o'z Qurilmalar tarmog'ida barcha Ishtirokchilarning Kartalariga uzluksiz va teng shartlarda xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- Kartalarga xizmat ko'rsatish uchun Operator bilan kelishilgan va u tomonidan sertifikatlangan qurilmalar hamda uskunalardan foydalanish;
- Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida Kartalar bo'yicha Operatsiyalarning mazkur Qoidalar, Tizimning me'yoriy hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq xavfsizligi va himoyalanganligini ta'minlash;
- shubhali, firibgarlik yoki huquqqa xilof Operatsiyalarni o'z vaqtida aniqlash maqsadida Operatsiyalar hamda SXKK faoliyati monitoringini amalga oshirish, shuningdek Operatsiyalarni cheklash yoki to'xtatib turish bo'yicha Operator talablarini zudlik bilan bajarish;
- Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan qurilmalarga, shuningdek Mijozlarni mazkur qurilmalarning joylashgan yeri to'g'risida xabardor qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlarga Tizimning tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va Logotiplarini joylashtirish;
- Ishtirokchilar Kartalari egalariga Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida Kartalarga xizmat ko'rsatish shartlari to'g'risida, shu jumladan, agar mavjud bo'lsa, Karta egasidan ayrim Operatsiyalar bo'yicha undiriladigan qo'shimcha komissiya miqdori haqida to'liq ma'lumot taqdim etish;
- Hisob-kitob markazidagi Hisobvaraqa Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida amalga oshiriladigan Operatsiyalar bo'yicha Ishtirokchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda pul mablag'lari qoldig'ini ta'minlash;
- Operatorning so'roviga ko'ra, Operator tomonidan belgilangan muddatlarda Ekvayerning Qurilmalar tarmog'ida Ishtirokchilar Kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni taqdim etish;
- har bir SXKK bilan Shartnoma tuzish sharti bilan SXKKlarni jalb qilish;
- o'z Qurilmalar tarmog'ining ishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash hamda SXKK bilan tuzilgan

Shartnomada SXKKning qurilmalarning ishga yaroqli holatini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarini nazarda tutish;

– SXKKlarni Kartalarga xizmat ko'rsatishga ulashda SXKK faoliyati tasnifiga qat'iy muvofiq ravishda MCC kodini belgilash hamda Avtorizatsiya so'rovlari va kliring xabarlarida MCC ko'rsatilishini ta'minlash;

– SXKKning shubhali va firibgarlik faoliyatini o'z vaqtida hamda samarali aniqlash uchun yetarli resurslarga ega bo'lish;

– ekvayring xizmatiga qabul qilingan barcha terminallar (shu jumladan virtual terminallar) ustidan shubhali faollikni va (yoki) ulardan ruxsatsiz foydalanishni monitoring qilish hamda oldini olish maqsadida nazoratni amalga oshirish;

– SXKK faoliyati ustidan quyidagi holatlarni monitoring qilish va oldini olish maqsadida nazoratni amalga oshirish:

- Ekvayer tomonidan taqdim etilgan yoki undan foydalanish kelishilgan Kartalarga xizmat ko'rsatish qurilmalaridan maqsadsiz foydalanish;
- Ekvayer tomonidan taqdim etilgan yoki undan foydalanish kelishilgan Kartalarga xizmat ko'rsatish qurilmalaridan firibgarlik harakatlarini sodir etish maqsadida foydalanish;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov vositasi sifatida qalbaki Kartalarni qabul qilish.

– Tizimga ulangan apparat-dasturiy majmuasi mavjud bo'ladigan bo'lsa:

- Operator bilan kelishilgan metodika va dastur asosida hamda uning ishtirokida apparat-dasturiy majmuani sinovdan o'tkazishni ta'minlash;
- Operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan Ekvayerning apparat-dasturiy majmuasining tunu-kun uzluksiz ishga yaroqli holatda bo'lishini ta'minlash;
- Tizimda belgilangan Ekvayer apparat-dasturiy majmuasining, shuningdek Kartalarga xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan qurilmalar va uskunalarning ishga tayyorlik darajasini ta'minlash;
- PCI DSS xavfsizlik standartlari talablariga muvofiq bo'lish;
- Operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlashni ta'minlovchi apparat-dasturiy majmuaning 1 (bir) soatdan ortiq muddatga rejalashtirilgan to'xtatilishi haqida Operatorni to'xtatilishdan kamida 3 (uch) ish kuni oldin xabardor qilish.

– har chorakda elektron shaklda Operatorga Ishtirokchining Karta egalariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan Qurilmalar tarmog'i to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;

– quyidagi hollarda SXKKning MCCsini yangilash:

- SXKKning faoliyat turi o'zgarganda;
- miskoding (SXKK faoliyati noto'g'ri tasniflanganligi) aniqlanganda;
- Operatorning ko'rsatmasi olinganda.

– disputli va (yoki) ruxsatsiz Operatsiyalarni tekshirishda Operatorga har tomonlama ko'maklashish;

– muvaffaqiyatli Avtorizatsiyadan o'tgan Operatsiyani u amalga oshirilgan sanadan e'tiboran 7 (yetti) kalendar kunidan kechiktirmay to'lov kliringiga yuborish;

– ekvayring xizmatiga qabul qilishdan oldin jalb etilayotgan SXKKlarni kompleks tekshiruvdan o'tkazish, shu jumladan SXKKning ta'sis hujjatlari nusxalariga, vakolatli organlarning ruxsatnomalariga, litsenziyalariga (agar qo'llanilsa) hamda boshqa ma'lumotnoma va (yoki) operatsion ma'lumotlarga ega bo'lish.

Ekvayer quyidagi huquqlarga ega:

– mazkur Qoidalarda belgilangan funksional vazifalari va majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi tashkilotlarni jalb qilish. Ushbu tashkilotlar faoliyati uchun Ishtirokchilar oldida javobgarlik Ekvayer zimmasida bo'ladi.

7.2. Ekvayerning SXXK bilan o'zaro hamkorligi

Ekvayer o'zi tomonidan xizmat ko'rsatiladigan har bir SXXK bilan Ekvayer va Kartalardan foydalangan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi SXXK o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilovchi alohida Shartnoma tuzishi shart.

Ekvayer SXXKga Kartalarga xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli va zarur bo'lgan Tizim Qoidalarining yetkazilishi hamda SXXK tomonidan ularga rioya etilishini ta'minlash uchun javobgar hisoblanadi.

Ekvayer SXXK tomonidan Kartalardan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha nizolarni hal etish jarayonlarida SXXK manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashi shart.

Ekvayer mazkur SXXKning faoliyati Tizimning ishchanlik obro'siga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan taqdirda, SXXKning Operatsiyalarini amalga oshirishni to'xtatib turishi shart.

Ekvayerning SXXK bilan tuzilgan Shartnomasi, shuningdek, kamida quyidagi qoidalarni o'z ichiga olishi shart:

- SXXK O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalar talablariga rioya qilishi shart;
- SXXK O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, mazkur Qoidalar yoki shartnoma shartlariga zid bo'lgan hollarda Kartalarni to'lovga qabul qilishga hamda ulardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas;
- SXXK Karta orqali to'lov amalga oshirilganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun boshqa to'lov usullarida yoki boshqa to'lov tizimlarining kartalari orqali to'lov amalga oshirilgandagiga nisbatan yuqoriroq narxlarni belgilashga haqli emas;
- Ekvayer O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalar talablari buzilganligi alomatlarini aniqlangan taqdirda Operatsiyani qayta ishlashni rad etishga, SXXK bilan hisob-kitoblarni to'xtatib turishga yoki shartnomani bekor qilishga haqli;
- Ekvayer Operatorning talabiga ko'ra SXXK bilan tuzilgan shartnomani cheklash va (yoki) bekor qilishga haqli;
- SXXK Tizimning to'lov vositalari egalarini boshqa to'lov usullaridan foydalanuvchi xaridorlarga nisbatan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lov qilishda qulayliklari kam bo'lgan shartlarni belgilash orqali kamsitishga haqli emas;
- SXXK Mijozdan PIN-kod, bir martalik parollar, CVV-kod hamda boshqa autentifikatsiya ma'lumotlarini oshkor etishni talab qilishga haqli emas;
- barcha Operatsiyalar majburiy avtorizatsiya va autentifikatsiya (PIN-kod, OTP-kod kiritish) orqali amalga oshiriladi, mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (agar Operatsiya Karta egasining tegishli autentifikatsiyasiz amalga oshirilgan va keyinchalik ruxsatsiz Operatsiya deb e'tirof etilgan bo'lsa, bunday Operatsiyani amalga oshirish bilan bog'liq tavakkalchiliklar uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Tizimning Normativ hujjatlariga muvofiq SXXK (Ekvayer) zimmasiga yuklatiladi);
- SXXK mazkur Qoidalar talablariga muvofiq, Emitent tomonidan tegishli rad etish kodi (Pick-Up Response Code) berilgan musodara qilingan Kartani 5 (besh) ish kuni ichida Ekvayerga topshirishi shart;
- XKK Karta egalarining ma'lumotlari saqlanishi va maxfiyligini ta'minlashi, Mijozlarning shaxsga doir ma'lumotlarini himoya qilish hamda axborot xavfsizligi bo'yicha talablarga rioya qilishi shart;
- SXXK Ekvayerga Operatsiyalar bo'yicha nizolarni (disputlarni) tartibga solish, to'lovlarni bekor qilish va (yoki) tekshiruvlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan talab etilgan ma'lumotlar hamda hujjatlarni taqdim etishi shart;
- SXXK shubhali yoki ruxsatsiz Operatsiyalar, ma'lumotlarga putur yetkazilishi yoxud axborot xavfsizligi bilan bog'liq boshqa noxush hodisalar aniqlanganligi to'g'risida Ekvayerni zudlik bilan xabardor qilishi shart.

7.3. Karta rekvizitlaridan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish uchun SXKK Internet-saytni rasmiylashtirish va funksionaliga qo'yiladigan talablar (internet-ekvayring)

SXKKning internet-sayti quyidagi talablarga javob berishi shart:

- statik IP-manzilga ega bo'lishi;
- HTTPS protokoli orqali xavfsiz ulanish bilan ta'minlangan hamda SSL/TLS sertifikatiga ega bo'lishi;
- domen (sayt)ga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lishi va uni Ekvayerga taqdim etishi;
- «UZ» domen zonasida ro'yxatdan o'tgan va joylashgan bo'lishi;
- saytga Tizim logotipini joylashtirishi;
- saytda Mijoz uchun ro'yxatdan o'tish shaklini joylashtirishi — buyurtmani rasmiylashtirayotgan Mijoz haqidagi ma'lumotlar, aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili), tovarlarni yetkazib berish/xizmatlarni ko'rsatish manzili va shartlari hamda boshqa ma'lumotlar;
- Mijoz SXKKning Ommaviy oferta shartlari bilan tanishib, ularni saytda tasdiqlash (akseptlash) orqali qabul qilganidan keyingina to'lovni amalga oshirish bosqichiga o'tishni ta'minlashi;
- quyidagilarni o'z ichiga olgan “Ommaviy kelishuv” yoki “Ommaviy oferta”ni o'z ichiga olishi:
 - buyurtma berish va to'lovni amalga oshirish usullarining tavsifi;
 - tovarni qaytarish (xizmatdan voz kechish), Karta bo'yicha Operatsiyani bekor qilish hamda mablag'larni Kartaga qaytarish shartlari;
 - tovarlarni yetkazib berish/xizmatlarni ko'rsatish shartlari;
 - Kartadan foydalangan holda amalga oshiriladigan Operatsiyalar xavfsizligini ta'minlash choralari to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - maxfiylik siyosati.
- Internet-sayt ro'yxatdan o'tkazilganda (Ro'yxatdan o'tkazish anketasida) taqdim etilgan ma'lumotlarga mos keluvchi tovarlar/xizmatlar toifalari ro'yxatini o'z ichiga olishi;
- litsenziyalanishi yoki huquq egasining ruxsatnomasi talab etiladigan realizatsiya qilinayotgan tovarlar/xizmatlar bo'yicha ishlab chiqaruvchi, huquq egasi yoki davlat organlari tomonidan berilgan litsenziyalar va ruxsatnomalar to'g'risidagi ma'lumotlarni saytda joylashtirishi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalariga muvofiq tarqatilishi taqiqlangan axborotni o'z ichiga olmasligi va (yoki) namoyish etmasligi;
- o'z Internet-sahifasida Karta rekvizitlarini so'ramasligi, qabul qilmasligi, saqlamasligi, qayta ishlamasligi va uzatmasligi. Karta raqami va boshqa to'lov rekvizitlarini kiritish faqat Operatorning to'lov Internet-sahifasida amalga oshirilishi shart;
- ishlaydigan sahifalar, nomlanishiga mos kelmaydigan havolalarga olib boruvchi havolalar, shuningdek boshqa saytlarga yo'naltiruvchi sahifalar va (yoki) havolalarni o'z ichiga olmasligi.

7.4. Kartalarga xizmat ko'rsatish punktlarini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar

Ekvayer Karta egalarini Kartalarni xizmat ko'rsatishga qabul qilish imkoniyati to'g'risida vizual xabardor qilish maqsadida o'zining hamda Kartalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma tuzilgan SXKKning kassalari, vitrinalari va kirish eshiklarida, Bankomatlarda, Internet-saytlarda hamda Karta egalariga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan boshqa qurilmalarda Tizimning tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va Logotipi tasvirini joylashtirishi shart.

SXKK bilan Kartalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma bekor qilingan, shuningdek Ekvayerning muayyan qurilmalarida Kartalarga xizmat ko'rsatish to'xtatilgan taqdirda, Tizim Logotipi tushirilgan stikerlar 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay olib tashlanishi shart.

7.5. SXKKni tekshirish qoidalari

SXKK bilan ekvayerlik xizmati ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani tuzishdan oldin Ekvayer hamkorlik

tavakkalchiligi mavjud emasligi, SXKK faoliyatining qonuniyligi hamda uning kreditga layoqatlilikini aniqlash maqsadida SXKKni kompleks tekshiruvdan o‘tkazishi shart.

Mijozni bilish (KYC) tartibi bo‘yicha tekshiruv:

SXKK Bankning talablari va ichki qoidalariga muvofiq mijozni identifikatsiya qilish va verifikatsiya qilish (KYC) hamda komplayens nazorati tartib-taomillaridan o‘tish uchun Ekvayerga barcha zarur hujjatlarni taqdim etadi. Jumladan, SXKKning anketa ma’lumotlarini (Bankning SXKK bilan tuzilgan Shartnomasida nazarda tutilgan namunaviy Anketa shakli bo‘yicha Anketani to‘ldirish majburiy hisoblanadi).

SXKK Ekvayerga quyidagi ma’lumotlar va hujjatlarni taqdim etadi:

- SXKKning to‘liq yuridik nomi, qisqartirilgan nomi hamda lotin yozuvidagi nomi;
- ro‘yxatdan o‘tganlik ma’lumotlari (STIR, IFUT, JShShIR (muassis jismoniy shaxs bo‘lgan taqdirda);
- SXKKning yuridik manzili hamda haqiqiy manzili (manzillari) (yer usti ekvayerligi amalga oshirilgan taqdirda) («bir kunlik firmalar»ni aniqlash maqsadida);
- faoliyatni amalga oshirish litsenziyalanishi talab etilgan taqdirda — vakolatli davlat organlari tomonidan berilgan tegishli litsenziyalar va ruxsatnomalar;
- savdo va (yoki) ombor binolariga nisbatan mulk huquqi yoki ijara huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- hujjatlarni imzolovchi shaxsning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar.

Ekvayer tomonidan SXKKning haqiqatan ham xo‘jalik faoliyatini amalga oshirayotganligini, xodimlari mavjudligini va boshqa holatlarni, shuningdek amalda realizatsiya qilinayotgan tovarlar/xizmatlarning Anketada ko‘rsatilgan ma’lumotlarga muvofiqiligini tekshirish maqsadida ofis, savdo binolari va omborning amaldagi joylashgan manziliga vakilning bevosita chiqishi amalga oshirilishi shart.

SXKKning moliyaviy holati va ishbilarmonlik obro‘si tekshirish quyidagilarni tekshirish orqali amalga oshiriladi:

- soliq bo‘yicha qarzdorligi;
- mol-mulki va transport vositalarining garovda ekanligi;
- to‘lovga qobiliyatsizlik belgilari;
- bozordagi faoliyat muddati (Internetdagi sharhlar);
- mulkdorlar va rahbariyatning ishbilarmonlik obro‘si.

7.6. MCC-kodlarni biriktirish qoidalar

Ekvayer SXKKga uning asosiy faoliyat turi hamda realizatsiya qilayotgan tovarlari (ishlari, xizmatlari)ga eng aniq mos keladigan MCC-kod berilishini ta’minlashi shart.

MCC-kod SXKK tomonidan taqdim etilgan hujjatlar va ma’lumotlar, shuningdek Ekvayer tomonidan o‘tkazilgan SXKK faoliyati tekshiruvi natijalari asosida biriktiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar, Tariflar, cheklovlar yoki tavakkalchiliklarni boshqarish tartib-taomillari talablarini chetlab o‘tish maqsadida SXKKga uning amaldagi faoliyat xususiyatiga mos kelmaydigan MCC-kodni biriktirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

SXKK faoliyati xususiyati o‘zgargan taqdirda, Ekvayer SXKKdan tegishli ma’lumot olinganidan keyin MCC-kodning oqilona muddatda yangilanishini ta’minlashi shart.

Operator, agar SXKKga biriktirilgan MCC-kod uning amaldagi faoliyat xususiyatiga yoki Tizim talablariga mos kelmasa, Ekvayerdan SXKKning MCC-kodini o‘zgartirishni talab qilishga haqli.

Ekvayer xizmat ko‘rsatayotgan SXKKlarga MCC-kodlarning to‘g‘ri biriktirilishi uchun javobgar hisoblanadi hamda Operatorning so‘roviga binoan biriktirilgan MCC-kodning asoslantirilishini va uni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

MCC-kod noto‘g‘ri biriktirilganligi aniqlangan taqdirda, Operator qoidabuzarlikni bartaraf etishni talab qilishga, tavakkalchiliklarni boshqarish choralari, shuningdek mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa

jarimalar va (yoki) ta'sir choralari qo'llashga haqli.

7.7. Musodara qilingan kartalar bilan ishlash tartibi

Karta O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek Bankomat yoki o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminalining texnik nosozligi natijasida musodara qilinishi mumkin.

Karta bo'yicha Operatsiyalarni to'xtatib turish va (yoki) Kartani musodara qilish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, Emitent Avtorizatsiya so'roviga javoban qaytarilmaydigan “Pick-Up” guruhidagi rad etish kodlaridan birini yuboradi hamda bu haqda Karta egasini SMS-xabar va (yoki) shartnomada nazarda tutilgan boshqa xabardor qilish usuli orqali zudlik bilan xabardor qiladi.

SXKK Emitent tomonidan Kartani musodara qilish zarurligini ko'rsatuvchi tegishli rad etish kodini olgan taqdirda, quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- Operatsiyani darhol to'xtatadi;
- Kartani Karta egasidan musodara qiladi;
- Kartaning but saqlanishini ta'minlaydi;
- belgilangan tartibda Ekvayerni tegishli ravishda xabardor qiladi hamda musodara qilingan Kartani unga topshiradi.

Bankomat orqali Kartaga xizmat ko'rsatish jarayonida Emitent tomonidan Kartani musodara qilish zarurligini ko'rsatuvchi tegishli rad etish kodi olingan taqdirda, Karta inkassatsiya amalga oshirilgunga qadar Bankomatning maxsus saqlash bo'limiga joylashtiriladi hamda belgilangan tartibda keyinchalik Ekvayerga topshiriladi.

Musodara qilingan Kartalar ularning but saqlanishini ta'minlaydigan hamda begona shaxslarning ulardan foydalanish imkoniyatini istisno etadigan maxsus jihozlangan joylarda saqlanishi shart.

Musodara qilingan Kartalarni saqlash muddati Ishtirokchining ichki hujjatlari bilan belgilanadi.

Musodara qilingan Kartalar saqlanadigan joylarga kirish faqat Ishtirokchining vakolatli shaxslariga ruxsat etiladi.

Musodara qilingan Kartalar qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida Emitentga topshirilishi yoki ularni qayta tiklash va (yoki) keyinchalik foydalanish imkoniyatini istisno etadigan tarzda tegishli dalolatnoma asosida yo'q qilinishi shart.

8. Firibgarlik, noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati bilan bog'liq Operatsiyalar, shuningdek xavfilik darajasi yuqori bo'lgan boshqa Operatsiyalarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar

8.1. Antifrod chora-tadbirlari

Operator Tizimning xavfsizligi, barqarorligi va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, firibgarlik, ruxsatsiz Operatsiyalarning oldini olish, shuningdek Ishtirokchilar va Karta egalarining tavakkalchiliklarini minimallashtirish maqsadida Operatsiyalar va to'lov vositalarini cheklash, to'xtatib turish hamda blokirovka qilish choralari qo'llashga haqli.

Operator Tizimda amalga oshiriladigan Operatsiyalarni avtomatlashtirilgan tavakkalchiliklarni tahlil qilish tizimlari, antifrod tizimlari, monitoring qoidalari, scoring modellari, shuningdek shubhali faollikni aniqlashning boshqa vositalaridan foydalangan holda monitoring qilishga haqli.

Firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash

Firibgarlik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash elektron to'lov vositalaridan Mijozning roziligisiz yoki uchinchi shaxslar ta'siri ostida olingan rozilik asosida foydalanilgan holda amalga oshirilgan ruxsatsiz (frod) Operatsiyalarni markazlashtirilgan tarzda aniqlash, tahlil qilish va oldini olish, shuningdek Ishtirokchilar hamda Operator o'rtasida ma'lumotlarni tezkor almashishni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Shubhali faollik

Ishtirokchilar Elektron to'lov vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshirilgan shubhali yoki ruxsatsiz (frod) Operatsiyalar, shuningdek SXKKlarda aniqlangan, Elektron to'lov vositalari, to'lov vositalari yoki o'ziga

o'zi xizmat ko'rsatish qurilmalariga oid ma'lumotlarga putur yetkazilishi, SXKK xodimlari tomonidan sodir etilgan firibgarlik yoxud boshqa g'ayriqonuniy harakatlarni sodir etishga urinishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan shubhali Operatsiyalar to'g'risida Operatorni xabardor qilishi shart.

Operator Ishtirokchi yoki Karta egasi bilan oldindan kelishmagan holda ushbu Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan ta'sir choralari qo'llashga haqli.

Xabardor qilish tartibi

Ishtirokchilar aniqlangan har qanday ruxsatsiz (frod) Operatsiyalar hamda SXKKlarda aniqlangan shubhali faollik to'g'risida Operatorni o'z vaqtida xabardor qilishi shart.

Xabardor qilish quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- Emitent Mijozdan ruxsatsiz (frod) Operatsiya to'g'risidagi bildirishnomani olganligi haqida Operatorga 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay xabar yuborishi shart;
- Ekvayer firibgarlik faoliyatida foydalanilayotgan bo'lishi ehtimoli mavjud bo'lgan shubhali Elektron to'lov vositasi (drop-karta) aniqlanganligi, shuningdek Ekvayer qurilmalari tarmog'ida Elektron to'lov vositalariga oid ma'lumotlarga putur yetkazilishi ehtimoli aniqlanganligi to'g'risida mazkur turdagi noxush hodisa aniqlangan zahoti darhol Operatorga xabar yuborishi shart.

Xabarlar Operator bilan kelishilgan aloqa kanallari orqali erkin shaklda, sabablar hamda Operatsiyaning tafsilotlari, shuningdek Elektron to'lov vositasi yoki to'lov vositasining Tizimda ularni identifikatsiya qilish uchun zarur bo'lgan rekvizitlari ko'rsatilgan holda yoxud Operator tomonidan belgilangan formatda yuboriladi.

Mazkur xabarlarni taqdim etish formati Operator tomonidan Ishtirokchilarga rasmiy aloqa kanallari orqali alohida xat bilan yetkaziladi.

Operator tomonidan ma'lumot so'rab olish

Operator firibgarlik va boshqa shubhali faollikni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan Operatsiyalar, xizmat ko'rsatish qurilmalari, SXKKlar, Elektron to'lov vositalariga oid ma'lumotlarga putur yetkazilishi holatlari hamda boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni Ishtirokchilardan so'rab olishga haqli.

Ishtirokchi Operator tomonidan yuborilgan so'rovga u olingan kundan e'tiboran 3 (uch) ish kuni ichida javob taqdim etishi shart.

Tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor qilish

Operator Ishtirokchilarning Elektron to'lov vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan Operatsiyalar yoki Ishtirokchilarning ekvayerlik tarmog'ida amalga oshirilgan Operatsiyalar bo'yicha aniqlangan firibgarlik va boshqa shubhali faollik belgilari to'g'risida bildirishnomalar, tavsiyalar va ogohlantirishlarni shakllantirish hamda Ishtirokchilarga yuborishga haqli.

Vaqtinchalik cheklovlar

Ruxsatsiz (frod) Operatsiyalar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni minimallashtirish maqsadida Operator Operatsiyaning qonuniyligini tasdiqlashni Ishtirokchidan hamda uning Mijozidan talab qilishga, bunday tasdiqni olishning imkoni bo'lmagan taqdirda tegishli ta'sir choralari qo'llashga, shuningdek ayrim toifadagi Operatsiyalarni qayta ishlashga nisbatan qo'shimcha cheklovlar, nazorat choralari yoki maxsus shartlarni belgilashga haqli.

Operator firibgarlik yoki ruxsatsiz Operatsiya belgilari aniqlangan Kartani, ushbu Karta orqali amalga oshirilgan Operatsiyalarni va (yoki) pul o'tkazmalarini blokirovka qilishga haqli. Shuningdek, Operatsiyalar tahlili natijalariga ko'ra boshqa Kartalar, qurilmalar yoki Operatsiyalar g'ayriqonuniy harakatlar, pul mablag'larini noqonuniy chiqarish yoxud tranzit o'tkazish bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadigan yetarli asoslar mavjud bo'lsa, Operator bunday Kartalarni, qurilmalarni hamda ular orqali amalga oshirilgan Operatsiyalarni va (yoki) pul o'tkazmalarini, shuningdek pul mablag'larini o'tkazish zanjiri ishtirokchilariga nisbatan ham blokirovka choralari qo'llashga haqli.

Operator ushbu bo'limda nazarda tutilgan choralarni quyidagi asoslarda qo'llashga haqli:

- o‘z tashabbusi bilan;
- Ishtirokchilarning murojaatlari asosida;
- Karta egalarining murojaatlari asosida;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlardan olingan ma'lumotlar asosida;
- davlat organlarining hujjatlari, ko'rsatmalari, sanksiyalari, so'rovlari yoki boshqa hujjatlari asosida;
- antifrod tizimlari, monitoring natijalari yoki boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida.

Operator tomonidan ushbu bo'limda nazarda tutilgan choralarni qo'llash Operatorning Ishtirokchilar yoki Karta egalari oldidagi majburiyatlarini buzish deb hisoblanmaydi hamda agar bunday choralar halollik, oqilonalik va vijdonanlik tamoyillariga rioya etilgan holda hamda quyidagi maqsadlarda qo'llanilgan bo'lsa, ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan cheklov choralarning qo'llanilishi natijasida yetkazilgan har qanday zarar, shu jumladan zararlar, boy berilgan foyda va boshqa salbiy oqibatlar uchun Operator javobgar bo'lmaydi:

- Tizim xavfsizligini ta'minlash;
- zarar yetkazilishining oldini olish;
- firibgarlikning oldini olish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish;
- vakolatli davlat organlarining talablarini bajarish.

Operator quyidagilarni mustaqil ravishda belgilaydi:

- cheklov choralarni qo'llash uchun asoslarning yetarililigi;
- qo'llaniladigan choralar ro'yxatini;
- cheklovlarning amal qilish muddatlarini;
- cheklovlarni bekor qilish zaruratini.

Tekshiruvga ko'maklashish

Ishtirokchilar firibgarlik holatlarini tekshirishda Operatorga ko'maklashishi, shu jumladan hodisalarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, hodisalar jurnallari (loglar), Operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda boshqa materiallarni taqdim etishi shart.

Aloqa kanallari

Firibgarlikka qarshi kurashish tizimi doirasida Ishtirokchilar va Operator o'rtasidagi axborot almashinuvi elektron pochta orqali amalga oshiriladi. cybersecurity@nmpc.uz elektron pochta manzili mazkur tizimning faoliyati bilan bog'liq so'rovlar, bildirishnomalar, xabarlar hamda boshqa axborotni yuborish uchun rasmiy aloqa kanali deb e'tirof etiladi.

Ishtirokchilar/Tizim subyektlari Operatorning quyidagilar bilan bog'liq talab va bildirishnomalarini zudlik bilan bajarishi shart:

- Kartalarni blokirovka qilish;
- Operatsiyalarni cheklash;
- ma'lumotlarni taqdim etish;
- antifrod tadbirlarini amalga oshirish;
- firibgarlik Operatsiyalarining oldini olish.

8.2. Noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati bilan bog'liq Operatsiyalar, shuningdek xavflilik darajasi yuqori bo'lgan boshqa Operatsiyalarga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar

Tizimning barqaror, xavfsiz va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, Ishtirokchilar hamda Mijozlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, Elektron to'lov vositalaridan noqonuniy foydalanishning oldini olish, noqonuniy qimor o'yinlari faoliyatiga qarshi kurashish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish maqsadida Operator noqonuniy qimor o'yinlari faoliyati bilan bog'liq Operatsiyalar hamda

xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan boshqa Operatsiyalarni monitoring qilish va ularga qarshi kurashish tizimining (bundan buyon matnda — **Monitoring tizimi**) faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Monitoring tizimi noqonuniy qimor o‘yinlari faoliyati belgilari, Elektron to‘lov vositalari ma’lumotlariga putur yetkazilishi, to‘lov infratuzilmasidan noqonuniy foydalanish belgilari mavjud bo‘lgan, shuningdek Mijozlarga, Ishtirokchilarga yoki Tizimga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa Operatsiyalarni aniqlash, tahlil qilish, baholash, oldini olish, cheklash, to‘xtatib turish va (yoki) blokirovka qilish uchun mo‘ljallangan tashkiliy, huquqiy hamda dasturiy-texnik vositalar majmuini tashkil etadi.

Operatorning vakolatlari

Operator Monitoring tizimining faoliyat yuritishini mustaqil ravishda tashkil etadi hamda Tizim xavfsizligini ta’minlash, Tizim Ishtirokchilari va ularning Mijozlari huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday tashkiliy, texnik va texnologik choralarni qo‘llashga haqli.

Monitoring tizimining faoliyat yuritishi maqsadida Operator quyidagilarga haqli:

- Tizimda amalga oshiriladigan barcha Operatsiyalar ustidan uzluksiz monitoring olib borish;
- avtomatlashtirilgan tizimlar, sun’iy intellekt tizimlari, skoring modellari, tavakkalchiliklarni baholash tizimlari, xulq-atvor tahlili tizimlari, tranzaksion faollikni monitoring qilish tizimlari hamda boshqa dasturiy-texnik vositalarni qo‘llash;
- shubhali Operatsiyalarni aniqlashga doir o‘z mezonlari, ssenariylari, qoidalari, indikatorlari va belgilarini shakllantirish;
- Ishtirokchilar, davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xalqaro to‘lov tizimlari, boshqa to‘lov tizimlari operatorlari, to‘lov tashkilotlari, banklardan, shuningdek boshqa qonuniy manbalardan olingan ma’lumotlardan foydalanish;
- Elektron to‘lov vositalari ma’lumotlariga putur yetkazilishi holatlari, aniqlangan drop-kartalar, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish qurilmalari, savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalari, Operatsiyalar rekvizitlari hamda monitoringning boshqa obyektlari bo‘yicha markazlashtirilgan hisob yuritish.

Noqonuniy qimor o‘yinlari faoliyatiga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish maqsadida Operator noqonuniy qimor o‘yinlari faoliyati bilan bog‘liq Operatsiyalarni aniqlash va ularga qarshi kurashish quyi tizimining faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Mazkur quyi tizim quyidagilar foydasiga amalga oshiriladigan to‘lov belgilari mavjud bo‘lgan Operatsiyalarni aniqlash, tahlil qilish, cheklash, to‘xtatib turish yoki blokirovka qilish uchun mo‘ljallangan:

- noqonuniy qimor o‘yinlari tashkilotchilari;
- onlayn-kazinolar;
- bukmekerlik tashkilotlari;
- totalizatorlar;
- tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar yoki Tizimning normativ hujjatlariga muvofiq taqiqlangan yoki cheklangan boshqa Operatsiyalar.

Operatorning cheklov choralarini qo‘llash bo‘yicha vakolatlari

Yetarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda Operator Ishtirokchi yoki Karta egasi bilan oldindan kelishmagan holda quyidagi choralarni qo‘llashga haqli:

- Operatsiyalarni amalga oshirishni cheklash;
- Operatsiyalarni amalga oshirishni vaqtincha to‘xtatib turish;
- Operatsiyani qayta ishlashni rad etish;

- ETVdan foydalanishni vaqtincha cheklash;
- Kartadan foydalanishni vaqtincha to‘xtatib turish;
- Kartani blokirovka qilish;
- boshqa elektron to‘lov vositalarini blokirovka qilish;
- Operatsiyalarning ayrim toifalarini qayta ishlash uchun qo‘shimcha shartlarni belgilash;
- Operatsiya bo‘yicha qo‘shimcha tasdiq talab qilish;
- boshqa zarur choralarni ko‘rish.

Agar tahlil natijalari ularning g‘ayriqonuniy faoliyat bilan o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida xulosa qilish uchun yetarli asoslar mavjudligini ko‘rsatsa, cheklov choralari nafaqat muayyan Operatsiya yoki Kartaga, balki boshqa Kartalarga, Elektron to‘lov vositalariga, o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish qurilmalariga, terminallarga, savdo va xizmat ko‘rsatish korxonalariga, Mijozlarga yoxud pul mablag‘lari harakati zanjiri ishtirokchilariga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

Axborot almashinuvi tartibi

Operator shubhali faollikni tahlil qilish uchun zarur bo‘lgan har qanday ma‘lumotlarni so‘rab olishga haqli. Ishtirokchilar esa Operator tomonidan so‘ralgan bunday ma‘lumotlarni to‘liq hajmda taqdim etishi shart.

Axborot almashinuvi Operator tomonidan belgilangan rasmiy aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi.

Agar Operator tomonidan boshqa elektron pochta manzili taqdim etilmagan bo‘lsa, cybersecurity@nmpc.uz elektron pochta manzili Monitoring tizimining faoliyat yuritishiga oid masalalar bo‘yicha rasmiy aloqa kanali hisoblanadi.

Operator javobgarligini cheklash

Operator tomonidan mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida nazarda tutilgan cheklov choralarining qo‘llanilishi Ishtirokchilar yoki ularning Mijozlari oldidagi majburiyatlarning buzilishi deb hisoblanmaydi.

Operator cheklov choralarini vijdonan qo‘llagan taqdirda, agar bunday choralar quyidagi maqsadlarga qaratilgan bo‘lsa, ularning qo‘llanilishi natijasida yuzaga kelgan zararlar, ziyon, boy berilgan foyda, Operatsiyalarni amalga oshirishning imkonsizligi yoki boshqa salbiy oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi:

- Tizim xavfsizligini ta‘minlash;
- Mijozlarning pul mablag‘larini himoya qilish;
- firibgarlikning oldini olish;
- noqonuniy qimor o‘yinlari faoliyatiga qarshi kurashish;
- jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish;
- O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablarini bajarish;
- vakolatli davlat organlari talablarini bajarish.

9. Tizimda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi

Tizimda TBT faoliyat yuritadi, u Tizim faoliyati jarayonida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va nazorat qilishni ta‘minlaydi.

Operator Tizimda TBT faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha vakolatli tarkibiy bo‘linmani (funksiyani) belgilaydi hamda TBT faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish tartibini Tizimning normativ hujjatlarida belgilaydi.

TBTning maqsadlari:

- Tizimning uzluksiz faoliyat yuritishini ta‘minlash;
- Tizimning barqarorligi va xavfsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar ta‘sirini kamaytirish;

– Tizim faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olish;

– amalga oshgan tavakkalchiliklarning oqibatlarini kamaytirish.

TBT kamida quyidagi tavakkalchilik toifalarini qamrab oladi:

- operatsion tavakkalchilik;
- hisob-kitob va kliring tavakkalchiligi;
- firibgarlik tavakkalchiligi (antifrod);
- kibertavakkalchiliklar hamda axborot xavfsizligi tavakkalchiligi;
- huquqiy tavakkalchilik (komplayens tavakkalchiligi);
- reputatsion tavakkalchilik.

Tavakkalchiliklarni monitoring qilish, axborot almashinuvi, noxush hodisalarga munosabat bildirish hamda nazorat choralarini qo'llash tartibi Tizimning normativ hujjatlarida belgilanadi

Mazkur bo'lim talablari ushbu Qoidalarining 10-bo'limi (Axborot xavfsizligi) qoidalari inobatga olingan holda qo'llaniladi.

10. Axborot xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablar

Tizimda Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishni ta'minlash tartibini belgilash bo'yicha majburiyatlar Operator va Ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi.

Ishtirokchilar Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishni mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari va qonunchilik talablariga muvofiq ta'minlash, shuningdek PCI DSS xalqaro standarti talablarining bajarilishini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Mazkur Qoidalarda axborotni himoya qilishni ta'minlashga oid umumiy talablar nazarda tutilgan.

Axborotni himoya qilishni ta'minlashga doir talablar quyidagi axborotni (bundan buyon matnda — himoyalananadigan axborot) himoya qilish maqsadida qo'llaniladi:

- amalga oshirilgan Operatsiyalar to'g'risidagi axborot, shu jumladan Ishtirokchilarning farmoyishlarini ijroga qabul qilishga oid xabarnomalarda (tasdiqlovlarda), shuningdek Ishtirokchilarning farmoyishlari ijro etilganligi to'g'risidagi xabarnomalarda (tasdiqlovlarda) mavjud axborot;
- qo'llanilayotgan naqd pulsiz hisob-kitob shakli doirasida rasmiylashtirilgan Mijozlar va Ishtirokchilarning farmoyishlarida mavjud axborot;
- Mijozlarning pul mablag'larini tasarruf etish huquqini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan axborot, shu jumladan Karta egalarining ma'lumotlari;
- Operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan axborotni kriptografik himoya qilish vositalarining kalit axboroti;
- Operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan hamda Ishtirokchilar tomonidan ishlashi ta'minlanadigan avtomatlashtirilgan tizimlar, dasturiy ta'minot, hisoblash texnikasi vositalari va telekommunikatsiya uskunalarning ishlash parametrlarini belgilovchi konfiguratsiya to'g'risidagi axborot;
- axborotni himoya qilishning texnik vositalari ishlash parametrlarini belgilovchi konfiguratsiya to'g'risidagi axborot;
- Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida qayta ishlanadigan, foydalanilishi cheklangan axborot, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy himoya qilinishi lozim bo'lgan boshqa axborot.

Har bir Tizim Ishtirokchisi axborotni himoya qilishni ta'minlash tartibini qonunchilikka, shu jumladan axborot xavfsizligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlariga, hamda ushbu Qoidalarda belgilangan vakolatlar (javobgarlik doiralari) doirasida mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlariga muvofiq mustaqil ravishda belgilaydi.

Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishga doir aniq talablar, shu jumladan mazkur talablarni ta'minlash usullari va vositalari Ishtirokchilarning ichki hujjatlarida belgilanadi.

Axborotni himoya qilish Ishtirokchilar tomonidan quyidagilarga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi:

- axborotni unga noqonuniy kirish, uni yo'q qilish, o'zgartirish, blokirovka qilish, nusxalash, taqdim etish va tarqatishdan, shuningdek axborotga nisbatan boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish;
- axborotning maxfiyligini ta'minlash.

Axborotni himoya qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun Ishtirokchilar shartnoma asosida maxfiy axborotni texnik jihatdan himoya qilish faoliyatini va (yoki) maxfiy axborotni himoya qilish vositalarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlarni jalb etishi mumkin.

Ishtirokchilar pul mablag'larini o'tkazish xizmatlarini ko'rsatish faoliyatiga jalb etilgan uchinchi shaxslar tomonidan bajariladigan Operatsiyalar hamda foydalaniladigan avtomatlashtirilgan tizimlar, dasturiy ta'minot, hisoblash texnikasi vositalari va telekommunikatsiya uskunalarining xususiyatlari inobatga olingan holda axborotni himoya qilishni ta'minlashga doir talablarning bajarilishini ta'minlaydi.

10.1. Axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Tizim Ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar

Ishtirokchilar Kartalardan foydalangan holda Operatsiyalarni amalga oshirishda, elektron xabarlar almashinuvi jarayonida, shuningdek Tizimdagi faoliyati bilan bog'liq axborotni saqlash va qayta ishlashda qonunchilik, mazkur Qoidalar hamda Tizimning normativ hujjatlari talablariga muvofiq axborotni himoya qilishni ta'minlashi shart.

Ishtirokchilar himoyaladigan axborotni tayyorlash, qayta ishlash, uzatish va saqlashning barcha bosqichlarida texnologik jarayon xavfsizligini, shuningdek axborotni himoya qilishning tashkiliy va texnologik chora-tadbirlari hamda texnik va dasturiy vositalarining o'zaro uyg'un holda qo'llanilishini ta'minlashi shart.

Axborotni himoya qilishga doir talablar Ishtirokchilar tomonidan axborot infratuzilmasi obyektlarining hayotiy siklining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar Tizimdagi faoliyati bilan bog'liq himoyaladigan axborotni qayta ishlash, uzatish va saqlashda ishtirok etuvchi xodimlarga nisbatan quyidagilarni ta'minlashi shart:

- xodimlarning lavozim majburiyatlaridan kelib chiqib ularga tegishli huquqlar va rollarni belgilash;
- xodimlarning harakatlarini nazorat qilish va qayd etish;
- xodimlarning himoyaladigan axborotdan foydalanishida identifikatsiya, autentifikatsiya va avtorizatsiya tartib-taomillarining bajarilishini ta'minlash;
- bir shaxsning ayni bir vaqtda axborot infratuzilmasi obyektlarini yaratish (modernizatsiya qilish), ekspluatatsiya qilish hamda texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq rollarni bajarishini taqiqlashni ta'minlash;
- himoyaladigan axborotdan foydalanish huquqlarining ruxsatsiz kengaytirilishini taqiqlashni ta'minlash;
- xodimlarga xizmat (funksional) vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan eng kam hajmdagi himoyaladigan axborotdan foydalanish huquqlarini berish;
- xodimlarning axborotni himoya qilishni ta'minlash, tashkiliy chora-tadbirlar hamda axborotni himoya qilishning texnik vositalarini qo'llash tartibi bo'yicha xabardorligini oshirish;
- xodimning lavozim majburiyatlari o'zgarganda yoki u ishdan bo'shatilganda uning himoyaladigan axborotdan foydalanish huquqlarini darhol bekor qilish.

Ishtirokchilar himoyaladigan axborotni qayta ishlovchi infratuzilma obyektlariga o'z xodimlarining kirishini ta'minlashda quyidagilarni qo'llashi shart:

- ruxsatsiz kirishning oldini olishga mo'ljallangan tashkiliy chora-tadbirlar va himoya qilishning texnik

vositalari;

- jismoniy kirishni nazorat qilish tizimlari;
- himoyalangan axborotdan foydalanishda barcha shaxslarni identifikatsiya qilish, autentifikatsiya qilish va avtorizatsiya qilish tartib-taomillarini;
- himoyalangan axborotdan foydalanishda barcha shaxslarning harakatlarini qayd etishni.

Ishtirokchilar Operatsiyalarni amalga oshirishda quyidagi axborotni himoya qilish vositalaridan foydalanilishini ta'minlashi shart:

- axborotni kriptografik himoya qilish vositalari;
- axborotni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish vositalari;
- antivirus himoyasi vositalari;
- tarmoqlararo ekranlash vositalari (Firewall);
- kirib kelishni aniqlash tizimlari;
- himoyalanganlikni nazorat qilish (tahlil qilish) vositalari.

Hisoblash texnikasi vositalarining odatdagi ishlashini buzishga olib keluvchi dasturiy kodlar (bundan buyon matnda — zararli kod) ta'siridan axborotni himoya qilish maqsadida Ishtirokchilar quyidagilarni ta'minlashi shart:

- texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda hisoblash texnikasi vositalarida, shu jumladan Bankomatlar va to'lov terminallarida antivirus dasturiy ta'minotidan foydalanish hamda uning avtomatik rejimda ishlashini;
- Mijozlar uchun zararli kod ta'siridan axborotni himoya qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va taqdim etishni;

– texnik imkoniyat mavjud bo'lgan taqdirda Operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan shaxsiy elektron hisoblash mashinalari, serverlar hamda Operatsiyalarni amalga oshirishda foydalaniladigan tarmoqlararo ekran(Firewall)larda turli ishlab chiqaruvchilarning antivirus dasturiy ta'minotidan foydalanish va ularni alohida o'rnatishni;

– zararli kodlarning tavsifi va ularni zararsizlantirish usullarini o'z ichiga olgan antivirus dasturiy ta'minoti versiyalari hamda antivirus ma'lumotlar bazalarini muntazam yangilab borishni;

– hisoblash texnikasi vositalariga, shu jumladan Bankomatlar va to'lov terminallariga o'rnatilayotgan yoki o'zgartirilayotgan dasturiy ta'minotni o'rnatishdan oldin unda zararli kod mavjud emasligini tekshirishni;

– dasturiy ta'minot o'rnatilgandan yoki o'zgartirilgandan so'ng hisoblash texnikasi vositalarini, shu jumladan Bankomatlar va to'lov terminallarini zararli kod mavjud emasligi yuzasidan tekshirishni.

Zararli kod yoki zararli kod ta'siri aniqlangan taqdirda Ishtirokchilar quyidagilarni ta'minlashi shart:

– zararli kodning tarqalishini oldini olish hamda uning ta'siri oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan choralarni ko'rishni;

– zarurat tug'ilganda zararli kod bilan zararlanish oqibatlari bartaraf etilgunga qadar Operatsiyalarni amalga oshirishni vaqtincha to'xtatishni;

– zararli kod yoki uning ta'siri aniqlanishi bilan bog'liq noxush hodisa to'g'risida Operatorni hamda to'lov infratuzilmasi xizmatlari operatorlarini xabardor qilishni.

Operatsiyalarni amalga oshirishda Internet tarmog'idan foydalanilganda Ishtirokchilar quyidagilarni ta'minlashi shart:

– Internet tarmog'i orqali uzatilayotgan himoyalangan axborot mazmuniga ruxsatsiz kirishning oldini olishga mo'ljallangan tashkiliy chora-tadbirlarni qo'llash va (yoki) axborotni himoya qilishning texnik vositalaridan foydalanishni;

– Internet tarmog'idan foydalangan holda axborot infratuzilmasi obyektlarida saqlanadigan yoki qayta ishlanadigan himoyalangan axborotga ruxsatsiz kirishning oldini olishga mo'ljallangan tashkiliy chora-tadbirlarni qo'llash va (yoki) axborotni himoya qilishning texnik vositalaridan foydalanishni;

- dasturiy ta'minotdagi zaifliklardan foydalanish orqali himoyalangan axborotga ruqsatsiz kirishning oldini olishga mo'ljallangan tashkiliy chora-tadbirlarni qo'llash va (yoki) axborotni himoya qilishning texnik vositalaridan foydalanishni;

- Operatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, shuningdek axborot infratuzilmasi obyektlari faoliyatidagi nosozliklar yoki uzilishlar bilan bog'liq salbiy oqibatlarni minimallashtirishni;

- axborot infratuzilmasi obyektlari joylashgan axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hamda Internet tarmog'i o'rtasida axborot almashinuvi jarayonida Internet tarmog'idan kelib chiqadigan salbiy tashqi ta'sirdan himoyalash maqsadida tarmoq paketlarini filtrlashni.

Ishtirokchilar axborot xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash hamda axborot tizimlarining zaifliklarini tahlil qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlashi shart.

10.2. Tizimda Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarning buzilishi bilan bog'liq hodisalarni aniqlash

Ishtirokchilar o'z javobgarligi doirasida noxush hodisalarni aniqlashni, aniqlangan noxush hodisalarga tezkor munosabat bildirishni, ularning kelib chiqish sabablarini bartaraf etishni, noxush hodisalarning salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha barcha zarur choralarni ko'rishni hamda ularning takroran yuzaga kelishining oldini olish choralarni ta'minlashi shart.

Ishtirokchilar aniqlangan noxush hodisalar to'g'risidagi axborotni Operatorga Operator tomonidan belgilangan tartib va muddatlarda har oy taqdim etishi shart.

Tizimning xavfsiz ishlashiga ta'sir ko'rsatuvchi noxush hodisalar aniqlangan taqdirda Ishtirokchilar bu haqda Tizimning normativ hujjatlarida belgilangan tartibda Operatorni zudlik bilan xabardor qilishi shart.

Yuqorida ko'rsatilgan xabarnomani olgandan so'ng Operator noxush hodisani bartaraf etishga qaratilgan barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'rishni ta'minlaydi hamda tegishli Ishtirokchini ko'rilgan choralari va ularning natijalari to'g'risida xabardor qiladi.

Operator Tizim resurslarida Ishtirokchilar uchun quyidagi axborotning hisobini yuritishni va undan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi:

- tizimli xususiyatga ega aniqlangan noxush hodisalar to'g'risidagi axborot;
- noxush hodisalarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish amaliyoti hamda uslubiyatlari to'g'risidagi axborot.

10.3. Operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish

Ishtirokchilar mazkur Qoidalar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan axborotni himoya qilishga doir talablar o'zgargan taqdirda axborotni himoya qilishni ta'minlash tartibini qayta ko'rib chiqishni ta'minlashi shart.

Ishtirokchilar quyidagi hollarda Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirishni ta'minlashi shart:

- mazkur Qoidalarda belgilangan axborotni himoya qilishga doir talablar o'zgarganda;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilganda;
- Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishni ta'minlash tartibi o'zgarganda;
- Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishga tahdidlar, tavakkalchiliklar va zaifliklar aniqlanganda;
- Operatsiyalarni amalga oshirishda axborotni himoya qilishni ta'minlash tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat (monitoring) olib borish jarayonida kamchiliklar aniqlanganda.

11. Javobgarlik

Ishtirokchilar o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari, tuzilgan shartnomalar hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

Ishtirokchilar va Tizim subyektlari mazkur Qoidalar qo'shilgan paytdan boshlab ularning talablariga rioya etilishi uchun javobgar bo'ladi.

Ishtirokchilar va Tizim subyektlarining o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarligi quyidagicha taqsimlanadi:

- Hisob-kitob markazi:
 - shartnomaga muvofiq hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatmaganligi yoki lozim darajada ko'rsatmaganligi uchun Ishtirokchilar oldida javobgar bo'ladi.
- Operator:
 - Protsessing shartnomalariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Ishtirokchilar oldida javobgar bo'ladi;
 - o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida Ishtirokchilarga yetkazilgan zararining hujjatlar bilan tasdiqlangan miqdorini qoplashi shart.
- Ishtirokchilar/Tizim subyektlari:
 - Tizim doirasidagi o'z harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek Tizimdagi faoliyatni amalga oshirish uchun Ishtirokchi/Tizim subyekti tomonidan jalb etilgan uchinchi shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi, shu jumladan firibgarlik va boshqa g'ayriqonuniy harakatlari uchun Ishtirokchilar/Tizim subyektlari hamda (yoki) Operator oldida javobgar bo'ladi. Mazkur javobgarlik Ishtirokchi/Tizim subyekti aybi bilan mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlari talablarining buzilishini ham qamrab oladi;
 - yuqorida ko'rsatilgan harakatlar yoki harakatsizlik natijasida Ishtirokchilar/Tizim subyektlari hamda (yoki) Operatorga yetkazilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan zararni to'liq hajmda qoplashi shart;
 - Ishtirokchi/Tizim subyekti harakatlari yoki harakatsizligi, shuningdek Tizim doirasidagi faoliyatni amalga oshirish uchun ular tomonidan jalb etilgan uchinchi shaxslarning harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Ishtirokchilar/Tizim subyektlari hamda (yoki) Operatorga yetkazilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan zararlarni qoplashi shart.

Ishtirokchilar/Tizim subyektlari mazkur Qoidalarda belgilangan Tizimning tovar belgisi, xizmat ko'rsatish belgisi va Logotipini joylashtirish hamda ulardan foydalanish shartlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, shu jumladan Tizimning tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini buzib ko'rsatganligi uchun javobgar bo'ladi.

Ishtirokchiga (Tizim subyektiga) nisbatan ta'sir chorasi qo'llanilgan taqdirda, Operator unga rasmiy aloqa kanali orqali tegishli xabarnoma yuboradi. Xabarnomada, shu jumladan, quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi shart:

- qo'llanilgan ta'sir chorasining turi;
- ta'sir chorasini qo'llashga asos bo'lgan sabablar va holatlar, bunda buzilgan Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari (mavjud bo'lsa) ko'rsatilgan holda;
- agar qo'llanilgan ta'sir chorasi moliyaviy sanksiyalar qo'llanilishini nazarda tutsa, to'lanishi lozim bo'lgan jarima miqdori;
- aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish muddati va tartibi (zarur hollarda);
- Ishtirokchining (Tizim subyekti) mazkur Qoidalar va (yoki) Tizimning normativ hujjatlarida belgilangan tartibda yozma tushuntirishlar, e'tirozlar, qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish yoxud ta'sir chorasining qo'llanilishini va (yoki) qo'llanilgan moliyaviy sanksiyalar miqdorini shikoyat qilish huquqi to'g'risidagi ma'lumot.

Zarur hollarda Operator Ishtirokchidan Operator tomonidan belgilangan muddatda aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini, shuningdek ularning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga haqli. Xabarnomada ko'rsatiladigan

ma'lumotlar ro'yxati yakuniy hisoblanmaydi va Operator Ishtirokchi tomonidan Operator hamda mazkur Qoidalar talablarining bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ham xabarnomaga kiritishga haqli.

Xabarnoma Operator tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan hamda Ishtirokchi tomonidan mazkur xabarnoma olinganligi faktini tasdiqlash imkonini beruvchi har qanday usul orqali yuborilishi mumkin.

Aniqlangan qoidabuzarlikka nisbatan e'tirozi mavjud bo'lgan taqdirda, Ishtirokchi Operatorning qoidabuzarlik to'g'risidagi xabarnomasini olgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kuni ichida o'z pozitsiyasining asoslarini bayon etgan yozma e'tirozni Operatorga taqdim etishga haqli.

Ishtirokchi tomonidan yozma e'tirozning taqdim etilishi uni qo'llanilgan jarimani to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

Operator Ishtirokchining e'tirozini u olingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay ko'rib chiqadi.

Operator Ishtirokchining e'tirozini ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha ijobiy qaror qabul qilgan taqdirda, undirilgan jarima summasi 10 (o'n) ish kuni ichida Ishtirokchiga qaytariladi. Ishtirokchilar mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida belgilangan majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganligi yoxud lozim darajada bajarmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlarining oqibati bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlariga Ishtirokchilarning irodasi va nazoratidan tashqarida bo'lgan, ular ta'sir ko'rsata olmaydigan hamda yuzaga kelishi uchun javobgar bo'lmagan hodisalar, shu jumladan urushlar va qurolli mojarolar, davlat organlarining taqiqlovchi hujjatlari va harakatlari kiradi.

Ishtirokchilar tomonidan majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelgan taqdirda, bunday majburiyatlarni bajarish muddati mazkur holatlar amal qilgan davrga, shuningdek ularning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan muddatga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

Ishtirokchilar yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi to'g'risida Operatorni zudlik bilan mavjud bo'lgan har qanday usul orqali xabardor qilishi hamda darhol pochta, faks, elektron pochta va boshqa mavjud aloqa kanallari orqali yozma bildirishnoma yuborishi shart. Bildirishnomada yuzaga kelgan holatlarning xususiyati, shuningdek imkon qadar mazkur holatlarning Ishtirokchilar tomonidan Tizim doirasida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ta'sirini baholash imkonini beruvchi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim.

Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi hamda ularning amal qilish muddati bunday holatlarni tasdiqlash (guvohlantirish) vakolatiga ega bo'lgan tegishli davlat organining hujjati bilan tasdiqlanishi shart.

Agar Tizim Ishtirokchisi yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari yuzaga kelganligi to'g'risidagi bildirishnomani yubormasa yoki uni o'z vaqtida yubormasa, u boshqa Tizim Ishtirokchilariga yetkazilgan zararlarni qoplashi shart hamda yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlarini javobgarlikdan ozod etuvchi asos sifatida vaj qilib ko'rsatishga haqli emas.

Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlarining amal qilishi tugaganidan so'ng, mazkur holatlar tufayli o'z majburiyatlarini bajara olmagan Tizim Ishtirokchisi ularning amal qilishi tugagan kundan boshlab 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay bu haqda Operatorni yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Operator Ishtirokchilarning har qanday zararlari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, keyinchalik yuzaga keladigan va hosila zararlar, boy berilgan foyda, daromadlarning yo'qotilishi, ma'lumotlarning yo'qolishi, ishchanlik obro'siga yetkazilgan zarar, tartibga soluvchi organlar tomonidan qo'llaniladigan oqibatlar, jarimalar, sanksiyalar, penyalar, neustoykalar, sud xarajatlari, shuningdek boshqa har qanday mulkiy va nomulkiy yo'qotishlar uchun, bunday oqibatlar yuzaga kelishi ehtimoli haqida Ishtirokchi oldindan xabardor qilingan taqdirda ham, javobgar bo'lmaydi.

Tizim Ishtirokchisi Operatorga yuboriladigan kliring fayllarida mavjud ma'lumotlarning qonuniyligi, ishonchliligi, to'liqligi, to'g'riligi, dolzarbligi va asoslanganligi, shuningdek ularni shakllantirish va Operatorga

yuborishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar hamda Tizimning normativ hujjatlari talablariga rioya etilishi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

Operator tomonidan kliring faylining qayta ishlanishi unda mavjud Operatsiyalarning qonuniyligi, to'g'riligi, ishonchliligi, asoslanganligi yoki haqiqiylikni tasdiqlashni anglatmaydi hamda Operator mazkur faylning mazmuni uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olganligini bildirmaydi.

Kliring fayllarining mazmuni, ularda aks ettirilgan Operatsiyalar, o'zaro hisob-kitob summolari, Operatsiyalarning qaysi Ishtirokchiga tegishliligi, ularni amalga oshirish asoslari, shuningdek kliring fayllarida mavjud boshqa ma'lumotlar bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklar, nizolar, e'tirozlar va talablar, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida yoki mazkur Qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Operator ishtirokisiz tegishli Tizim Ishtirokchilari o'rtasida bevosita hal etilishi lozim.

Operator to'lov Operatsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan Tizim Ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarning tarafi hisoblanmaydi, mazkur huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mazmunan ko'rib chiqmaydi hamda bir Ishtirokchining boshqa Ishtirokchi oldida majburiyati mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida qaror qabul qilmaydi.

Tizim Ishtirokchilari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, Operator o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar hamda maxfiylik rejimi talablariga rioya etilgan holda, o'zida mavjud axborot, Operatsiyalarni qayta ishlash jurnallari, loglar, xabarlarining o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlar, kliring fayllari hamda Operator tasarrufidagi boshqa ma'lumotlarni taqdim etish orqali bunday kelishmovchiliklarni hal etishga ko'maklashadi. Bunday axborotning taqdim etilishi Operator tomonidan nizo taraflaridan birining talablarini asosli deb e'tirof etilganligini anglatmaydi hamda Operator zimmasiga mazkur nizoni hal etish bo'yicha hech qanday javobgarlikni yuklamaydi.

Agar kliring fayllarini qayta ishlash oqibatlari tegishli kliring fayllarida mavjud ma'lumotlarning ishonchsizligi, to'liq emasligi, xatoligi, o'z vaqtida taqdim etilmaganligi yoki qonunga xilofligi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Operator Tizim Ishtirokchilari tomonidan shakllantirilgan va yuborilgan bunday kliring fayllarini qayta ishlash oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi. Mazkur qoida bunday oqibatlar Operatorning qasddan sodir etgan harakatlari yoki qo'pol ehtiyotsizligi natijasida yuzaga kelgan hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Jarimalar

Jarima choralari Ishtirokchi tomonidan mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari, Operatorning bajarilishi majburiy bo'lgan talablarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni buzgan taqdirda Operator tomonidan qo'llaniladi.

Jarima choralarini qo'llashdan maqsad Ishtirokchilar tomonidan majburiyatlarning lozim darajada bajarilishini ta'minlash, qoidabuzarliklarning oldini olish, Tizimning barqaror, xavfsiz va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, shuningdek Ishtirokchilar, Mijozlar hamda Operatorning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Jarima choralarini qo'llashga qoidabuzarlik sodir etilganligini tasdiqlovchi materiallarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Operator tomonidan qabul qilingan asoslantirilgan qaror asos bo'ladi.

Jarima choralarini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilishda Operator qoidabuzarlikning xususiyati, og'irlik darajasi, davomiyligi va oqibatlarini, qoidabuzarlikning takroran sodir etilganligini, yetkazilgan yoki yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar miqdorini, javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlarning mavjudligini, shuningdek masalani xolisona ko'rib chiqish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni hisobga olishga haqli.

Operator mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida nazarda tutilgan doirada jarima choralarini qo'llash zaruratini, ularning miqdorini, shuningdek boshqa ta'sir choralarini mustaqil ravishda belgilaydi hamda bunda oqilonalik, vijdonlilik, sodir etilgan qoidabuzarlikka mutanosiblik, shuningdek Tizimning xavfsizligi va barqaror faoliyat yuritishini ta'minlash tamoyillaridan kelib chiqadi.

Operatorning jarima choralarini qo'llash to'g'risidagi qarorida quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- Operatorning nomi;

- qarorning raqami, qabul qilingan sanasi va joyi;
- qoidabuzarlikka yo'l qo'ygan Ishtirokchi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- aniqlangan qoidabuzarlik tavsifi;
- jarima choralarini qo'llashning holatlari va asoslari;
- mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzilgan qoidalariga havolalar (mavjud bo'lgan taqdirda);
- qoidabuzarlik sodir etilganligini tasdiqlovchi dalillar;
- jarima miqdori;
- qoidabuzarlikni bartaraf etish muddati (zarurat bo'lganda);
- Ishtirokchining yozma tushuntirishlar, e'tirozlar taqdim etish yoki mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda qabul qilingan qaror ustidan shikoyat qilish huquqi to'g'risidagi ma'lumot.

Operatorning jarima choralarini qo'llash to'g'risidagi qarori Ishtirokchiga rasmiy aloqa kanali orqali yuboriladi hamda, agar uni olishning boshqa vaqti hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa, yuborilgan paytdan e'tiboran olingan deb hisoblanadi.

Agar Operatorning qarorida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, jarimalar Ishtirokchi tomonidan Operatorning qarori olingan kundan e'tiboran 10 (o'n) ish kuni ichida to'lanishi shart.

Jarima to'lanishi Ishtirokchini yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etish, Operator va (yoki) boshqa Ishtirokchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari yoki tegishli shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

Jarima choralarining qo'llanilishi Operatorning mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ta'sir choralarini Ishtirokchiga nisbatan bir vaqtning o'zida qo'llash huquqini cheklamaydi. Bunday ta'sir choralar jumlasiga ogohlantirish berish, bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatma chiqarish, ayrim Operatsiyalarni cheklash yoki to'xtatib turish, Tizimning ayrim servislardan foydalanishni cheklash, xizmat ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish yoxud mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda Tizimdagi ishtirokni tugatish kiradi.

Jarima miqdorlari

Agar Tizimning normativ hujjatlarida yoki Operatorning alohida qarorida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, Ishtirokchilarga nisbatan quyidagi miqdorlarda jarimalar qo'llaniladi

- MCC-kodlarni noto'g'ri tasniflaganlik, BIR ro'yxatlarini o'z vaqtida yangilamaganlik, komission to'lov miqdorini kamaytirish yoki belgilangan cheklovlarni chetlab o'tish maqsadida SXKK toifalari kodlari to'g'risida ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlarni taqdim etganlik, xizmat ko'rsatish qurilmalarini noto'g'ri ro'yxatdan o'tkazganlik, shuningdek Operatsiyalarni qayta ishlashning imkonsizligi yoki noto'g'ri qayta ishlanishiga olib kelgan boshqa harakatlar (harakatsizlik) uchun:

- birinchi marta sodir etilgan qoidabuzarlik uchun — ogohlantirish va (yoki) Operator tomonidan qaror qabul qilingan sanada amalda bo'lgan bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 50 (ellik) baravarigacha miqdorda jarima;

- ikkinchi marta sodir etilgan qoidabuzarlik uchun — BHMning 100 (yuz) baravari miqdorida jarima;
- uchinchi marta sodir etilgan qoidabuzarlik uchun — BHMning 200 (ikki yuz) baravari miqdorida jarima;

- to'rtinchi marta sodir etilgan qoidabuzarlik uchun — BHMning 1 500 (bir ming besh yuz) baravari miqdorida jarima;

- har bir keyingi qoidabuzarlik uchun — BHMning 2 000 (ikki ming) baravari miqdorida jarima.

- avtorizatsiya, yo'naltirish, Operatsiyalarni qayta ishlash va tasdiqlash talablarini buzganlik, shuningdek

tegishli avtorizatsiyasiz yoki mazkur Qoidalar yoxud Tizimning normativ hujjatlari talablarini buzgan holda Operatsiyalarni amalga oshirganlik uchun — BHMning 100 (yuz) baravaridan 500 (besh yuz) baravarigacha miqdorda jarima;

- E-POS-terminallardan ularning funksional maqsadiga zid ravishda foydalanganlik, shuningdek Tizimda belgilangan cheklovlarni chetlab o'tishga, Operatsiyalar parametrlarini, Operatsiya turlarini (Transaction Type), to'lovlarni qayta ishlash usullarini yoki Operatsiyalarning boshqa rekvizitlarini o'zgartirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirganlik uchun — Operator tomonidan qaror qabul qilingan sanadan oldingi o'n ikki kalendar oy davomida mazkur Qoidalar buzilgan holda amalga oshirilgan Operatsiyalarning umumiy summasining 20 (yigirma) foizi miqdorida jarima;

- mazkur Qoidalar, Tizimning normativ hujjatlari yoki Operatorning bajarilishi majburiy bo'lgan talablarining boshqa buzilishlari uchun, agar jarima miqdori mazkur Qoidalar yoki Tizimning normativ hujjatlarida bevosita belgilanmagan bo'lsa — BHMning 200 (ikki yuz) baravarigacha miqdorda jarima.

Operator mazkur Qoidalar va Tizimning normativ hujjatlarida belgilangan jarima miqdorlarini qayta ko'rib chiqishga, shuningdek mazkur Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Tizimning tegishli normativ hujjatlarini qabul qilish orqali qo'shimcha qoidabuzarlik turlarini hamda ularga nisbatan qo'llaniladigan javobgarlik choralari belgilashga haqli.

12. Nizolarni hal etish

Operator va Ishtirokchilar ular o'rtasida yuzaga keladigan Disputlarni (nizolarni) vijdonan va o'z vaqtida hal etish majburiyatini oladilar.

Disputlarni tartibga solish doirasida Ishtirokchi va Operator o'rtasidagi o'zaro hamkorlik elektron pochta (dispute@nmpc.uz) va (yoki) Operator tomonidan har bir Ishtirokchiga taqdim etilgan maxsus platforma (shaxsiy kabinet) orqali amalga oshiriladi hamda Disputlarni tartibga solish bilan bog'liq so'rovlar, xabarnomalar, bildirishnomalar, hujjatlar va boshqa axborotni yuborish uchun rasmiy aloqa kanali deb e'tirof etiladi.

Ishtirokchilar/Tizim subyektlari Disputlarni tartibga solish jarayonini boshqarish uchun mas'ul xodimlarni tayinlashlari hamda quyidagi tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan Disputlarni tartibga solishda boshqa Ishtirokchilarga ko'maklashishlari lozim:

- Karta egasi (Ishtirokchi Mijozi) va boshqa Ishtirokchining SXKKsi o'rtasida;
- SXKK (Ishtirokchi/Tizim subyekti) va boshqa Ishtirokchining Karta egasi o'rtasida;
- Ishtirokchilar, Operatorlar va boshqa Tizim subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan boshqa har qanday Disputlarini tartibga solishda.

Operator Disput jarayoni doirasida, shu jumladan Ishtirokchi Disputni va (yoki) u bo'yicha moliyaviy javobgarlikni tan olgan, belgilangan muddatlarda so'ralgan hujjatlar, ma'lumotlar yoki tushuntirishlarni taqdim etmagan yoxud boshqa tarzda Disput jarayonida ishtirok etishdan bo'yin tovlagan hollarda Ishtirokchilar o'rtasida moliyaviy javobgarlikni taqsimlash maqsadida Ishtirokchining pul mablag'larini akseptsiz (kliring sikli doirasida) hisobdan chiqarish, ushlab qolish va (yoki) o'zaro hisobga olishni amalga oshirishga haqli.

Disputlarni tartibga solish chog'ida Operatsiyaning haqiqiy amalga oshirilganligini tasdiqlovchi har qanday hujjatlar, fayllar va (yoki) cheklar mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan standart kvitansiyalar yoki boshqa hujjatlar o'rnini bosuvchi hujjatlar sifatida qabul qilinishi mumkin.

Disputlarini ko'rib chiqish, yuritish va tartibga solish tartibi mazkur Qoidalar hamda Tizimning normativ hujjatlarida belgilanadi hamda Tizimning Axborot resursida joylashtirish orqali Ishtirokchilarga ma'lum qilinadi.

13. Maxfiylik

Ishtirokchining maxfiy axboroti deganda cheklangan foydalanishdagi axborot, shu jumladan Ishtirokchilarning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar, shuningdek taqdim etish shaklidan qat'i nazar, Ishtirokchiga tegishli hamda axborotni taqdim etuvchi tomonidan axborotni qabul qiluvchiga beriladigan har qanday boshqa axborot tushuniladi.

Tizimning maxfiy axboroti deganda Tizimning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan hamda ulardan

foydalanish imkoniyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar, Operator va Ishtirokchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar, shuningdek Operatorning ichki hujjatlariga muvofiq cheklangan har qanday axborot tushuniladi.

Tizimning maxfiy axboroti jumlasiga, shu jumladan, quyidagilar kiradi:

- Tizimning dasturiy ta'minoti, arxitekturasi, texnik yechimlari, axborot infratuzilmasi va axborotni himoya qilish vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Operatsiyalarni qayta ishlash, yo'naltirish, avtorizatsiya, kliring, hisob-kitoblar hamda Tizimning boshqa texnologik jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- kriptografik kalitlar, axborotni kriptografik himoya qilish vositalari, xavfsizlik parametrlari, shuningdek Tizimning axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq boshqa ma'lumotlar;
- Operator yoki Ishtirokchilar tomonidan Tizim doirasidagi faoliyatni amalga oshirish jarayonida olingan, agar bunday ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Qoidalar yoki shartnomalarga muvofiq cheklangan foydalanishdagi axborot jumlasiga kiritilgan bo'lsa, ma'lumotlar;
- Operator tomonidan maxfiy deb belgilangan boshqa axborot, agar bunday maxfiylik rejimi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmasa.

Quyidagi axborot Tizimning maxfiy axboroti jumlasiga kirmaydi

- umumiy foydalanishdagi axborot hisoblangan yoki mazkur Qoidalar talablarining buzilishi natijasida emas, boshqa asoslarga ko'ra umumiy foydalanishdagi axborotga aylangan;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq oshkor etilishi lozim bo'lgan;
- maxfiylikni saqlash majburiyatlarini buzmaganda holda uchinchi shaxslardan qonuniy ravishda olingan;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sudning yoki boshqa davlat organlarining o'z vakolatlari doirasida qo'yilgan talablari asosida oshkor etiladigan.

Tizim doirasidagi faoliyati davomida axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va undan voz kechish imkoniyati mavjud emasligini ta'minlash maqsadida Ishtirokchilar elektron hujjat aylanishi tizimidan hamda himoyalangan aloqa kanallaridan foydalanishlari shart. Mazkur vositalar Ishtirokchilar o'rtasida axborot almashinuvi jarayonida hujjatlarni himoyalangan (shifrlangan) shaklda va hujjatni shakllantirgan tomonning elektron imzosi bilan imzolangan holda uzatish imkonini ta'minlashi lozim.

Maxfiy axborotni ochiq aloqa kanallari orqali uzatish taqiqlanadi. Axborotni qabul qiluvchi tomon axborotni taqdim etuvchi tomonning yozma roziligisiz (ruxsatisiz) mazkur Qoidalarda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, maxfiy axborotni uchinchi shaxslarga oshkor qilishga haqli emas.

Ishtirokchilar Tizimdagi faoliyatini amalga oshirish jarayonida foydalaniladigan va olinadigan axborotning maxfiyligini saqlash majburiyatini o'z zimmalariga oladilar hamda axborotni taqdim etuvchi tomonning oldindan yozma roziligini olmagan holda, oqilona zaruratni hisobga olib, mazkur axborotni Tizimda ishlash uchun undan foydalanishi zarur bo'lgan va maxfiy axborot bilan ishlashga ruxsat etilgan o'z xodimlariga berishga haqli.

Axborotni qabul qiluvchi tomon maxfiy axborotdan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan o'z xodimlari hamda boshqa shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgar bo'ladi.

Axborotni qabul qiluvchi tomon o'z aybi bilan sodir bo'lgan maxfiy axborotning oshkor etilishi, shuningdek undan ruxsatsiz foydalanilishi uchun javobgar bo'ladi.

Axborotni qabul qiluvchi tomon o'z aybi bilan sodir bo'lgan maxfiy axborotning oshkor etilishi yoki undan ruxsatsiz foydalanilishi natijasida axborotni taqdim etuvchi tomonga yetkazilgan zararining o'rnini qoplashi shart.

Axborotni taqdim etuvchi tomon (Ishtirokchi) Tizimdan chiqqan taqdirda, shuningdek axborotni taqdim etuvchi tomonning talabiga ko'ra istalgan vaqtda axborotni qabul qiluvchi tomon axborotni taqdim etuvchi tomonga ilgari o'ziga taqdim etilgan barcha maxfiy axborotni, shuningdek maxfiy axborotni o'z ichiga olgan barcha nusxalar, har qanday hisobotlar, tahlillar, ma'lumotnomalar, ko'chirmalar, reproduksiyalar va boshqa materiallarni (yozma hamda elektron shaklda), o'zida hamda mazkur Qoidalarga muvofiq maxfiy axborot oshkor

etilgan shaxslar tasarrufida mavjud bo'lgan materiallarni dalolatnoma asosida, maxfiy axborotni qaytarish to'g'risidagi bildirishnomani olgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida qaytarishi shart. Agar mazkur axborotni qaytarishning imkoni bo'lmasa, axborotni qabul qiluvchi tomon uni (ularni) yo'q qilishi hamda maxfiy axborotni yo'q qilish to'g'risidagi bildirishnomani olgan kundan e'tiboran 5 (besh) ish kuni ichida axborotni taqdim etuvchi tomonga yo'q qilish dalolatnomasini taqdim etishi shart. Agar maxfiy axborotni yuqorida belgilangan muddatlarda qaytarish va (yoki) yo'q qilishning imkoni bo'lmasa, mazkur muddat tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Ishtirokchi har qanday asosga ko'ra Tizimdan chiqqan taqdirda, maxfiy axborotni oshkor qilmaslik majburiyati Ishtirokchi Tizimdan chiqqan kundan e'tiboran 5 (besh) yil mobaynida amal qiladi.

Mazkur hujjatning o'zbek tilidagi tahriri rus tilidagi matn asosida tayyorlangan. O'zbek va rus tillaridagi matnlar o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, rus tilidagi matn ustuvor kuchga ega bo'ladi.